



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAHALLA VA OILANI QO'LLAB-  
QUVVATLASH VAZIRLIGI



"MAHALLA VA OILA" ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI

**"MAKTAB YOSIDAGI QIZLAR BILAN ISHLASH" YO'NALISHI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



TOSHKENT – 2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAHALLA VA OILANI QO'LLAB-QUVVATLASH VAZIRLIGI  
“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**



**“TASDIQLAYMAN”**

**“Mahalla va oila”**

**ilmiy-tadqiqot instituti direktori**

**N.M.Egamberdiyeva**  
7 April 2021-y.

**MAKTAB YOSHIDAGI QIZLAR BILAN ISHLASH BO‘YICHA  
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

Umumiy o‘quv soati - 40

Shu jumladan, 30 soat ma’ruza,

10 soat amaliy mashg‘ulot

**TOSHKENT – 2021**

Maktab yoshidagi qizlarning ta'lif yo'li uning ijtimoiy rivojlanishining eng muhim vositasi, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishning muhim usuli bo'lib hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilishda o'rta maxsus ta'lif tizimi asosiy o'rinni egallaydi, albatta. Vaziyat o'quv muassasasinig ta'lif imkoniyatlari bilan ham, o'quvchi shaxsini shakllantirishda maktab davrining o'ziga xos xususiyatlari bilan ham bog'liq.

Ushbu o'quv uslubiy majmua maktab yoshidagi qizlarni ijtimoiy faolligini oshirish, oila, maktab va jamiyatga ijtimoiylashishiga oid bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy moslashgan shaxs sifatida ijtimoiy, kasbiy va fuqaroviylar pozitsiyasini belgilashida ko'mak beradi.

**USHBU O'QUV-USLUBIY MAJMUA** maktab yoshidagi qizlarni hayotga, oilaga, jamiyatga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga tayyorlashga mas'ul bo'lgan mahalla raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinnbosarlari, ayollar maslahat kengashlari, ota-onalar, xalq ta'lifi tizimi xodimlari va keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

### **Mualliflar:**

Ismaylova R. – psixologiya fanlari nomzodi (Ph.D)

Yulchiyeva D. – kichik ilmiy xodim

### **Mas'ul muharrir:**

Egamberdiyeva N. M. – pedagogika fanlari doktori, professor

### **Taqrizchilar:**

M.Xoliqova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

B.Turaqulov-psixologiya fanlari nomzodi

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA** O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashining 2021-yil 7-apreldagi 4-son majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

I. Kirish.....	4
II. O‘quv kursi dasturi.....	11
III. Nazariy mashg‘ulot materiallari.....	17
IV. Amaliy mashg‘ulot materiallari.....	118
V. Glossariy.....	125
VI. Foydalaniman adabiyotlar ro‘yhati.....	127

## KIRISH

Ma’naviy barkamol, aqliy jihatdan yetuk, jismonan sog’lom farzandni tarbiyalash masalasi asrlar davomida insoniyat jamiyatining oliy maqsadi bo‘lib kelgan va bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbek xalqining ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy tarbiya mакtabining ildizlari juda teran, zabardastdir. Ayniqsa oilada qiz bolalar tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan.

Bugungi kunda qizlarni mustaqil hayot yo‘lini tanlashga tayyorlash va ularda ijtimoiy faollikni shakllantirish muhim ahamiyatga molikdir. Qizlarning ma’naviy darajasining sustligi, hayotiy qadriyatlarni anglamasligi, o’zlarining hayoti davomida turmush tarzini ijtimoiy-madaniy me’yor va qoidalar asosida qura olmaslik, odamlar o’rtasidagi ko’plab ijtimoiy munosabatlarni tushunmaslik holatlari ko‘p uchraydi. Haqiqat shundaki, ular oldida rasmiy ravishda ochilgan istiqbollar va keng imkoniyatlarga qaramay, ular hayot jabhalarida katta qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ushbu tanlovni amalga oshirish, avvalambor, qizlar tarbiyasida faqat bir tomonlama yondashish, ya’ni ularni faqat oila qurishga tayyorlashdan iborat bo‘lib qolib, qizlarning ijtimoiy faol, ma’naviy yetuklik, iqtisodiy mustaqil bo‘lish imkoniyatlaridan foydalanish darajasiga e’tibor qaratilmagan. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g’risda”gi 820-sonli Qarori muhim va tarixiy ahamiyatga egadir.

Qiz bola uchun mustaqil hayot mas’uliyatli, qiyin davrdir. Bu davr yangi ijtimoiy aloqalar, kelajak uchun ko’rsatmalar, ijtimoiy moslashuv kabi qator jaryonlarni bosib o’tishni talab qiladi. Albatta bu kabi jarayonni bosib o’tish uchun qizlarni bolalik davridayoq ular uchun zarur bo‘lgan bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish lozim. Qizlarni jamiyat hayotiga integratsiya qilish, ularda faollikni kuchaytirish, hayotiy qiyinchiliklardan xayiqmaslik ruhida tarbiya qilish, ularning ijtimoiylashuvini ta’minlash davr talabidir. Qizlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashga, xatti-harakatlarini o’zlashtirishga yaqindan yordam berish lozim.

Shu munosabat bilan, maktab yoshidagi qizlar bilan maqsadli ishlash dasturini yaratish zarur va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu “Maktab yoshidagi qizlar bilan ishlash” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua qizlarni ijtimoiy faolligini oshirish, oila, maktab va jamiyatga ijtimoiylashishiga oid bilim, ko’nikma hamda malakalarni shakllantirishga hamda ijtimoiy moslashgan shaxs sifatida ijtimoiy, kasbiy va fuqaroviylar pozitsiyasini belgilashida ko’mak berishga yonaltirilgan.

Kursda maktab yoshidagi qizlarning ijtimoiy hayotdagi o’rni va roli, oilaning huquqiy asoslari, oila byudjeti va iqtisodini shakllantirish hamda rivojlantirishkiyinish, ma’naviy-milliy madaniyati, oilaviy hayot asoslari, oila psixologiyasi-pedagogikasi, gigiyenasi hamda reproduktiv salomatlikka doir ilmiy-nazariy va amaliy ma’lumotlar jamlangan.

## O‘QUV KURSINI O‘QITISH BO‘YICHA USLUBIY KO‘RSATMALAR

Ma'lumki shaxsni shakllantirish uchun, ayniqsa maktabgacha va maktab yoshida u boshdan kechirayotgan inqirozlarning salbiy ta'sirlarini yumshatuvchi qulay sharoitlarni yaratish muhimdir. Bunday sharoitlarni yaratish faqat gumanistik yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayoni bilan ta'minlanadi, bu uning individuallagini hisobga olgan holda bolaning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Ijtimoiy-ruhiy tarbiya jarayoni uning ruhiy va jismoniy sog'lig'iga zarar yetkazmaligi kerak.

Maktab yoshidagi qizlarning ma’naviy - milliy madaniyatini shakllantirish insonparvarlik, valeologik, axloqiy, estetik va tashkiliy-pedagogik sharoitlar, tabiiy va ijtimoiy muhitga bosqichma-bosqich kirib borishiga asoslanadi.

Ijtimoiylashuvning muvaffaqiyati bola, o’smirning o'qish va mehnat faoliyatida faol ishtirok etishiga, uning dunyoqarashini kengaytirishda atrof-muhitning ta'siri, uning yosh va individual xususiyatlari qanday hisobga olinishiga, o'z-o'ziga ishonchi qanday rivojlanishiga bog'liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-

quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash borasida respublika miqyosida qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, oilalardagi zo'ravonlik holatlarini oldini olish yoki uni bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi va "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlarining kuchga kirgani bu boradagi tarixiy qadam bo'ldi.

Odobli, bilimdon, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli qiz bola nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi.

Demak, oila barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa,adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona vatanni sevish hissini uyg'otish o'ta muhim hisoblanadi. Maktab yoshidagi qizlarni o'z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas'uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda nafaqat ota-onaning maktab, mahalla, qo'ni-qo'shnining o'zaro samimiyl munosabati, ularning maktab yoshidagi qizlar bilan yaqin, do'stona munosabatda bo'lishi, ularning kelajakdagi orzu-maqsadlarini tushunib olishlari, farzandlarning sog'-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo'ladi.

Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvorga, odatlarga va aql-farosat omillariga ega bo'lgan bo'lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi angraydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi va aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy ko'nikmalari oz bo'lsa, bunday shaxs ba'zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo'l uradi.

Yaxshi tarbiya, ba'zilar o'ylaganidek, bir soatlik yoki bir kunlik ish emas. Maqsadli tarbiya tarbiyachidan chidam, matonat, katta bilim va tajriba talab qiladi. Demak, har bir ota-onasi va o'qituvchi tarbiyaga oid bilim va malakaga ega bo'lishi shart.

Bolalar tarbiyasida tezda ijobiy natijalarga erishish uchun ularga bilim berish bilan birga, ma'lum mehnat jarayonlariga jalb etish, kasb va mutaxassislik sirsinoatlarini qo'shib o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya ishining ba'zan samarasiz bo'lishiga asosiy sabablardan biri tarbiya jarayonida tartib-intizomning bo'Imasligidir. Shaxs qanchalik mehr-muhabbat va tartib-intizom muhitida voyaga yetsa, yomon xatti harakatlardan shunchalik uzoq bo'ladi.

Inson tarbiyasining murakkabligi shundaki, u hech qachon tugamaydi, ya'ni kishi tug'ilganidan to umrining oxiriga qadar zarur bo'ladi. Bundan tashqari, tarbiya ko'rgan avlod o'rniga kelgan farzandlarni yana qayta boshdan tarbiya qilish darkor bo'ladi. Bu esa tarbiyaning tinimsiz davriyligini va abadiyligini ko'rsatadi.

Yoqorida bildirilgan fikr va mulohazalar asosida “Maktab yoshidagi qizlar bilan ishlash” yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturi yaratildi.

### **“Maktab yoshidagi qizlar bilan ishlash” yo'nalishi bo'yicha o'quv kursining maqsadi.**

Maktab yoshidagi qizlarni jamiyatga, hayotga har tomonlama tayyorligini oshirish, ularni jamiyatga moslashish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, oila va uning mazmun-mohiyati hamda funksiyalari haqidagi bilimlari, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning oilaga ma'naviy, axloqiy, iqtisodiy masalalar bo'yicha tayyorligini oshirish, oilada va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan, ilmfanga intilish, kasb tanlash va professional motivatsiyasini hosil qilish, oilaviy hayot asoslari, oila psixologiyasi, iqtisodi, ma'naviyati, oila va uy-joy gigiyenasi, reproduktiv salomatlik, turli yuqumli ijtimoiy kasalliklar, favqulotda vaziyatda o'ziga va boshqalarga birinchi tibbiy yordam ko'rsata olish bo'yicha ko'nikmalari, kiyinish madaniyati va odobi, ruzgorshunoslik asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish va rivojlantirish, barcha sohalarda turg'un ko'nikmalar hosil qilishdan iboratdir.

## **“Maktab yoshidagi qizlar bilan ishlash” yo‘nalishi bo‘yicha**

### **o‘quv kursining vazifalari:**

- O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha va maktab yoshidagi qizlarni mustaqil, o‘qish, kasbiy va oilaviy hayotga tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining mazmun va mohiyatini ular ongiga singdirish;
- maktab yoshidagi qizlar uchun hayotda zarur bo‘ladigan barcha ehtiyojlar bo‘yicha terilgan, ilmiy tasdiqlangan, zamonaviy xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan, innovatsion g‘oyalar majmui bo‘lgan bilimlarni berish va ularning teran, fikrlash qobiliyati yuksak, ma’naviyatli, qobil tarbiyali, ochiq ko‘ngilli, samimiy qilib tarbiya qilish;
- oila institutini mustahkamlash bo‘yicha “Oila jamiyat va davlat himoyasida” konstitutsiyaviy tamoyilini keng targ‘ib etish va jamiyatga singdirish, oilada ma’naviy va jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish, ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish asosida milliy mentalitetga mos ijtimoiy ongni tarbiyalash, “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” kontseptual g‘oyasini hayotga tatbiq etish, oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish borasida ko‘mak berish;
- maktab yoshidagi qizlarda oila, turmush, ijtimoiy-siyosiy hayot va jamiyatga integratsiyasi bo‘yicha ma’lumot, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

## **BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARIGA QO‘YILGAN TALABLAR**

“Maktab yoshidagi qizlar bilan ishlash” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturi asosida o‘qitish jarayonida asosiy shaxsning ijtimoiylashuvi, milliy va madaniytarixiy omillarning tarbiyada tutgan o‘rni, komil insonni tarbiyalash mazmuni to‘g‘risida tasavvurlarga ega bo‘lishi; shu bilan birga maktab yoshidagi qizlarda: oilaviy hayot, oila psixologiyasi, oilaning funksiyalari, oilada er va xotinning rollari, vazifalari; ota-onalik ko‘nikmalari, diniy va ma’rifiy tarbiya asoslari, oilaning huquqiy asoslari, kiyinish madaniyati va etikasi, oila byudjeti va iqtisodi,

jamiyat hayotiga samarali ijtimoiylashuv asoslari bo'yicha bilimlarini rivojlantirish va ko'nikmalar hosil qilish zarur.

"Maktab yoshidagi qizlar bilan ishlash" yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturi asosida maqsadli darslarni o'tgan maktab o'quvchi qizlari quyidagi axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy sifatlarni o'zlariga qabul qiladilar: vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik, samimiylilik, kamtarlik, mo'minlik, kamsuqumlilik, ochiq ko'ngillilik, qo'li ochiqlik, sahiylik, o'zga insonlarning ko'nglini olish, dil egasiga aylanishga sayi-harakat qilish, to'g'rilik, tavozelik, oilaga e'tiqodga sodiqlik, mehribonlik, mehmonnavozlik, diniy bag'rikenglik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, sabr, qanoat, tinchlik va osudalikni e'zozlash, mayin gapirish, bosiqlik, jahnga erk bermaslik, zo'ravonlikni qabul qilmaslik va o'ziga ep ko'rmaslik.

Dastur ishlab chiqish jarayonida yosh davrlar xususiyati e'tiborga olindi va ijtimoiy ta'lif-tarbiya sxemasi asosida quyidagi uchta yosh davrni o'z tarkibiga oladi:

**1 bosqich:** kichik maktab davri 7-11 yosh;

**2 bosqich:** o'rta maktab davri - 12 – 15 yosh;

**3 bosqich:** katta maktab davri – 15 -18 yosh.

Uquv kursi 40 soatga mo'ljallangan bo'lib, bunda bir akademik soat 40 daqiqa qilib belgilangan. Har bir mavzu uchun 2 akademik soat (80 minut) ajratilgan. O'quv kursi maktab yoshidagi qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga tayyorlash uchun zarur bo'lgan materiallar va axborotlarning to'liq to'plamini o'z ichiga qamrab olgan. Materiallar o'quv jarayonida foydalanish shakli va ketma-ketligiga rioya qilingan holda taqdim etilgan. Hech qanday qo'shimcha material va dastur talab etilmaydi. Mazkur dasturning zaruriyati, davlatimiz siyosatiga monandligi, qabul qilingan huquqiy va normativ hujjatlarni hayotga joriy etilishiga mosligi uning "Mahalla va oila" tizimi orqali amaliyotga joriy etilishini ta'minlaydi.

**“MAKTAB YOSHIDAGI QIZLAR BILAN ISHLASH” YO’NALISHI BO’YICHA**  
**O’QUV KURSI DASTURI**

<b>O’QUV DASTURINING MASHG’ULOTLAR KESIMIDAGI JADVALI</b>		
<b>No</b>	<b>MA’RUZA MAVZULARI</b>	<b>Dars soatlari hajmi</b>
1.	Maktab yoshidagi qizlarning fiziologik, psixologik, yosh, ma’naviy xususiyatlari	2
2.	Maktab yoshidagi qizlarda sog’lom turmush tarzini shakllantirish	4
3.	Maktab yoshidagi qizlarning reproduktiv salomatligini tarbiyalash	4
4.	Maktab yoshidagi qizlarni turli zararli odatlardan saqlashning o’ziga xos xususiyatlari	2
5.	Maktab yoshidagi qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash	2
6.	Maktab yoshidagi qizlarda yaqin va uzoq qarindoshlar haqidagi tasavvurlarini shakllantirish	2
7.	Maktab yoshidagi qizlarda gender tenglik haqidagi tushunchalarni shakllantirish.	2
8.	Maktab yoshidagi qizlarni zo’ravonlik va tazyiqdan asrashning o’ziga xos xususiyatlari	2
9.	Maktab yoshidagi qizlarda sog’lom e’tiqodni shakllantirish asoslari	2
10.	Maktab yoshidagi qizlarda mehnatsevarlikni shakllantirishning o’ziga xos xususiyatlari	2
11.	Maktab yoshidagi qizlarni kasbga yo’naltirish	4
12.	Maktab yoshidagi qizlarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirish	4
<b>AMALIY MASHG’ULOTLAR</b>		
1.	Qizlarni jamiyat hayotiga integratsiyasi masalalari. Blits-so’rov, keys topshirig’i,	2
2.	Oilaga psixologik tayyorlik. Ziddiyatlar va ular oldini olish. Blits-so’rov, keys topshirig’i, muammoli vaziyat tahlili	2
3.	Maktab yoshidagi qizlarga oilada bola parvarishi va ona suti haqidagi bilimlarini mustahkamlash Blits-so’rov, keys topshirig’i, muammoli vaziyat tahlili	2
4.	Maktab yoshidagi qizlarning ma’naviyatini shakllantirish. Blits-so’rov, keys topshirig’i, muammoli vaziyat tahlili	2
5.	Qiz bolaga ijtimoiy tahdidlar. Blits-so’rov, topshiriqlar, muammoli vaziyat tahlili, babs-munozara	2

## **O'QUV KURSI MAVZULARINING QISQACHA MAZMUNI**

### **1-MAVZU. MAKTAB YOSHIDAGI QIZLARNING FIZIOLOGIK, YOSH, MA'NAVIY, PSIXOLOGIK FIZIOLOGIK XUSUSIYATLAR**

Maktab yoshidagi qizlarning rivojlanish xususiyatlari. Mabtagacha davrda inqiroz. Kichik maktab yoshi, o'smir va o'spirinlik davri. Psixologik, fiziologik xususiyatlar. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarga nisbatan munosabatlarni shakllantirish.

### **2-MAVZU. MAKTAB YOSHIDAGI QIZLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLANTIRISH**

Sog'lom turmush tarzining asosiy mohiyati. Salomatlikning asosiy omillari. Sog'lom turmush tarzining talablari va kasalliklarini oldini olish. Tibbiy faollik va salomatlik sog'lom turmush tarzini shakllantirish. Tibbiy yordam ko'rsatish turlari. Ambulator davolash, statsionar davolash. Poliklinika, kasalxona, dispanser, aptekalarning vazifalari. Birinchi tibbiy yordam ko'rsata olish ko'nikmalari. Uy vazifalarini bajarish va kitob o'qish vaqtidagi qoidalari. Uyga tez yordam, o't o'chiruvchi, gaz yoki elektr energiya xizmatini chaqirish tartibi. Ijtimoiy kasalliklar (sil, animeniya, buqoq) va ulardan himoyalanish yo'llari.

### **3- MAVZU. MAKTAB YOSHIDAGI QIZLARNING REPRODUKTIV SALOMATLIGINI TARBIYALASH**

Reproduktiv salomatlikning ijtimoiy-pedagogik jihatlari. Maktab o'quvchilari orasida reproduktiv salomatlik to'g'risida bilim darajasini oshirish xususiyatlari. Reproduktiv salomatlik va xulq-atvor tibbiy va ijtimoiy muammo sifatida. Shaxsiy gigiyena qoidalari. Maktabgacha yoshdagi qizlarning gigiyenasi (7 yoshgacha). Maktab yoshidagi qizlar gigiyenasi.

### **4-MAVZU. MAKTAB YOSHIDAGI QIZLARNI TURLI ZARARLI ODATLARDAN SAQLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Zamonaviy tahdidlar va ularning turlari. Qizlar nimalardan ehtiyyot bo'lishlari kerak? Odam savdosi, mehnat migratsiyasi va uning oqibatlari, narkotrafik, toksikomaniya, ichkilikbozlik va giyohvandlik, ularning oqibatlari. Yomon

odatlarga nisbatan psixoemotsional qat’iylik, shaxs irodasini shakllantirish. Internetga bog’lanib qolishdan ehtiyot bo’lish.

## **5-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYORLASH**

O’zbek oilalari tafakkurida oilaning muqaddasligi. Oilada ijobjiy muhitni yaratish. Oilada muomila madaniyati. Qonunchiligimizda oila institutining e’tirofi. Oilaga oid milliy an’analar. Oilaga doir umumbashariy qadriyatlar silsilasi. Oilani rivojlantirishda davlat siyosatining o’rni. Oila va uning funksiyalari. Oila turlari. Zamonaviy oilalarning o’ziga xos xususiyatlari.

## **6-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARDA YAQIN VA UZOQ QARINDOSHLAR HAQIDAGI TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH**

Qarindoshlar haqida nima bilaman (Avlodlar daraxti). Bir ota-onadan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar. Ikki shaxs o’rtasidagi to’g’ri shajara bo’yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya’ni tug’ilish soni bilan belgilanadi. Bolalar ota-onasiga nisbatan to’g’ri shajaratagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan — ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan — uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va hokazo. To’g’ri shajara bo’yicha qarindoshlar yon shajara bo’yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinroqligi.

Ikki shaxs o’rtasida qarindoshlikning uzoq-yaqinligini aniqlashda, darajalarning soni yoki shu shaxslardan birining o’zini hisobga qo’shmay turib, undan kelib chiqqan avlodlar soni hisobga olinishi xususida.

## **7-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARDA GENDER TENGLIK HAQIDAGI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH**

Gender tenglik haqida tushuncha. Oilada gender tenglik. O’zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi 10-modda. Oilaviy huquqlarni amalga oshirish va oilaviy majburiyatlarni bajarish to’g’risida. Fuqarolar oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlarini o’z xohishlariga ko’ra tasarruf etishlari.

Oila a'zolarining o'z huquqlarini amalga oshirishlari hamda o'z majburiyatlarini bajarishlari oilaning boshqa a'zolari va o'zga shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shart-sharoitlari. 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi va "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlarining mazmuni va mohiyati

## **8-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARNI ZO'RAVONLIK VA TAZYIQDAN ASRASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Maktabda etika qoidalarini o'rganish. Maktab o'quvchilari orasida zo'ravonlik. Maktabda zo'ravonlik turlari. Zo'ravonlik va tazyiqlarning sabablari. Tazyiq va zo'ravonlikdan homoyalanish yo'llari va vositalari.

## **9-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARDA SOG'LOM E'TIQODNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI**

Dunyoviy va diniy bilimlar. Maktab yoshidagi qizlarda dunyoqarashni shakllantirish. Shaxs tamoyillari va uni shakllantirish asoslari. Sog'lom e'tiqod nima? Diniy va milliy urf-odatlar: umumiylilik va farqlar.

## **10-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARDA MEHNATSEVARLIKNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI**

Mehnat tushunchasi va uning mohiyati. Bolalarni necha yoshdan mehnatga o'rgatish lozim? Mehnat turlari. Aqliy va jismoniy mehnat. O'z mehnati va boshqalar mehnatini qadrlash, hurmat qilish. Hunarmandlik. Ijtimoiy foydali mehnat, jamoat ishi, o'z-o'ziga xizmat qilish. Maktab yoshidagi qizlarni o'quv mehnatini tashkil etish usullari. Maktablarda ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish zaruriyati.

## **11-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARNI KASBGA YO'NALTIRISH**

Qiziqish, moyillik, qobiliyat va hunar. Maktab yoshidagi qizlarning qobiliyatлari, qiziqishlari va iqtidorlarini aniqlash va ularni rivojlantirish uchun yo'naliш

ko'rsatish bo'yicha psixologik trening mashg'uloti. Qobiliyat va hunar. Kasb tanlash.

## **12-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARDA IQTISODIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH**

Oila va oila iqtisodiyoti. "Byudjet" tushunchasini shakllantirish. Qizlarning moliyaviy savodxonligini oshirish. Uy-ro'zg'or ishida iqtisod. Pul va unung funksiyasi. Oila byudjeti - daromad manbai, oila a'zolarining ish haqlari, nafaqa. Oilaning haftalik, oylik byudjetini hisoblash. Byudjetni rejalashtirish, ro'zg'or ishlarini yuritishda ketadigan harajatlarni hisoblash, do'kon yoki bozordan harid qilish ko'nikmalarini o'zlashtirish. Tejamkorlik tafakkurini shakllantirish. Qizlarning oila iqtisodiga qo'sha oladigan hissasi. Oila iqtisodining asosiy va zaruriy sarf-harajatlari (oziq-ovqat, kiyim-kechak, ta'lif, yo'l kira).

### **AMALIY MASHG'ULOTLAR**

**1-MAVZU.** Qizlarni jamiyat hayotiga integratsiyasi masalalari. Blits-so'rov, keys topshirig'i.

**2-MAVZU.** Oilaga psixologik tayyorlik. Ziddiyatlar va ular oldini olish. Blits-so'rov, keys topshirig'i, muammoli vaziyat tahlili

**3-MAVZU.** Maktab yoshidagi qizlarga oilada bola parvarishi va ona suti haqidagi bilimlarini mustahkamlash

Blits-so'rov, keys topshirig'i, muammoli vaziyat tahlili

**4-MAVZU.** Maktab yoshidagi qizlarning ma'nnaviyatini shakllantirish. Blits-so'rov, keys topshirig'i, muammoli vaziyat tahlili

**5-MAVZU.** Qiz bolaga ijtimoiy tahdidlar. Blits-so'rov, topshiriqlar, muammoli vaziyat tahlili, bahs-munozara

### **O'QUV KURSINI OLIB BORISH SHAKL VA USLUBLARI:**

O'quv kursi mashg'ulotlari nazariy va amaliy qismlardan iborat dars shaklida tashkillashtiriladi. Nazariy va amaliy qismlar "Keys-stadi?",

“Trening”, “Master-klass”, “Debat”, “Disput”, “Rolli o‘yinlar”, “Muammoli vaziyat” “Ijtimoiy roliklar”dan foydalanish kabi metodlarni qo’llagan holda o’tkaziladi.

## **MASHG'ULOTLARNING AMALIY QISMINI O'TKAZISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR:**

Amaliy qismni multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o’tkazilishi lozim. Mashg’ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o’tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Har ikkala mashg’ulot shakllarida obyekt ham subyekt ham faol bo'lislari, o'zaro fikr almashishlari, qiziqtirgan savollarga hamkorlikda javob topishlari, mакtab yoshidagi qizlarga beriladigan ma'lumotlar ularning ijtimoiy hayot, kasb-hunar, oilaviy mustaqil hayot haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

### **O'QUV KURSIDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR:**

“Maktab yoshidagi qizlar bilan ishlash” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv kursini muvaffaqiyatli o‘qib tugallagan barcha tinglovchi qizlar quyidagi yo‘nalishlarda zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar:

- oilaviy hayotga tayyorlash (oila psixologiyasi va pedagogikasi, oilaning funksiyalari, oilada er va xotinning rollari,sog'lom ona bo'lishga tayyorgarlik vazifalari);
- ma'naviy -ma'rifiy tarbiya asoslari;
- oilaning huquqiy asoslari;
- reproduktiv salomatlik;
- ijtimoiy yuqumli kasalliklar va ularning oldini olish bo‘yicha bilim va ko'nikmalar;
- favqulotda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam ko’rsatish ko’nikmalar;
- kiyinish madaniyati va etikasi;
- oila byudjeti va iqtisodi;
- yaqin va uzoq qarindoshchilik munosabatlari hamda oila mustahkamligi sirlari;
- ro'zg'orshunoslik asoslari;
- oilada gender tenglikni ta'minlash qoidalari;
- muvaffaqiyatli ijtimoiylashish.

# **1-MAVZU. MAKTAB YOSHIDAGI QIZLARNING FIZIOLOGIK VA YOSH XUSUSIYATLARI. MA'NAVIY, PSIXOLOGIK, TIBBIY VA FIZIOLOGIK XUSUSIYATLAR**

## **Reja:**

1. Fiziologik va yosh xususiyatlarning o'zaro bog'liq tomonlari.
2. Yosh davrlarida ma'naviy, psixologik tushunchalarning shakllanib borishlari.
3. "Yoshga mos" tushunchasi.

Har bir yosh o'z jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanish darajasiga ega. Yosh xususiyatlari hayotning ma'lum bir davrida, anatomik, fiziologik va aqliy fazilatlarni o'zlashtiradi va dominantlik qiladi. Shuningdek, yosh rivojlanishni qat'iy ushlab turadi va uning irodasini belgilaydi. Yosh xususiyatlarini hisobga olish pedagogik va psixologik ish olib borishda asosiy tamoyillaridan biridir. Unga asosan ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilar, bolalarni turli xil faoliyat turlari bilan band qilish vaqtini tartibga soladilar, rivojlanish uchun eng qulay kun tartibini, o'quv mashg'ulotlari materiallari, shakllari va usullarini tanlashni belgilaydilar.

## **Bola rivojlanishining davriyligi**

**(D.B. Elkonin)**

## **1-jadval**

<b>Davrlar</b>		<b>Bolalik davri</b>
Chaqoloqlik va go'daklik davri (0-1 yosh)	To'g'ridan-to'g'ri hissiy aloqa	<b>Ilk bolalik davri</b>
Ilk bolalik (mактабгача тарбиya yoshidan oldingi davr) – 1-3 yoshgacha	Predmetli faoliyat	
Mактабгача yosh davri – 3- 7 yosh	Syojetli rolli uyinlar	<b>Bolalik davri</b>
Kichik mактab yoshi davri - 7 - 11 yosh	O'quv faoliyati	
O'rta mактab yoshi (o'smirlik) davri – 11 -15 yosh	Tengdoshlari bilan muloqot	<b>O'smirlik davri</b>
Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri – 15 -17 yosh	Ta'lim va kasbiy faoliyat	<b>O'spirinlik davri</b>


## **Ilk bolalik (mактабгача тарбиya yoshidan oldingi davr)- davrda fiziologik va yosh xususiyatlari.**

Bu davrda shaxsning asosiy stereotipli harakatlari shakllanadi. Uch yoshga kelib, bolada o'zi va borliq haqida tasavvur shakllanadi. 3-5 yoshda esa bolada "Men" olmoshi ishlataladi.

Bu davr rivojlanishining ijtimoiy vaziyati quyidagilardan iborat: bola – predmet – katta odam. Bu davrda bola diqqat e'tibori predmetga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari bu davrda idrok, intellekt va nutq faoliyatları rivojlanadi.

### **Ilk yosh davrida shaxsni rivojlantirish uchun zarur shartlar**

#### **1-rasm**



## Individual farqlar

Kattalar bilan o'zaro aloqada harakatlarni o'zlashtirish

### 2-rasm



Uch yoshda hammaga ma'lum inqiroz davri hisoblanadi. Bola shaxsida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

### 3-rasm




## Maktabgacha yosh davri fiziologik va yosh xususiyatlari

Bola hayotida maktabgacha ta'lif muassasi yangi ijtimoiy muhit paydo qiladi. Bu davrda bolaning intellektual va aqliy imkoniyatlari baholanadi. O'z-o'zini baholash rivojlanadi. Bolaga bu vaqtida to'g'ri ijobiy – munosabatda bo'lish, mehr-muhabbat berish, bu inqirozdan oson o'tishga yordam beradi. Bolaning matabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning matabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo matabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. Olti yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi.

Uning og'irligi oyiga 150 dan 200 gr gacha, bo'yisi esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va yengil yugura oladilar. Ular sakrash, yugurish, suzish singari harakatlarni ham bemalol bajarishlari mumkin. Musiqa bo'yicha mashg'ulotlarda esa xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, yengil va chaqqon bajara oladilar.

## Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy-psixologik portreti

4-rasm



## **7-yoshli bolani inqirozidan qanday chiqarish mumkin?**

### **Bolani ijobjiy baholash:**

- bolani shaxs sifatida ijobjiy baholash, unga nisbatan xayrixoh munosabatni namoyish etish ("Bilaman, sen juda ko'p harakat qilding", "Sen aqlli o'g'il (qiz)");

- Bolaning xatosiga ishora qilib, shunday deyish mumkin ya'ni "Ammo bugun sen ko'p harakat qilding," deb yo'l qo'yilgan xatolarni, bola bilan tahlil qiling ularni tuzatish yo'llarini muhokama qiling.

- Ijodiy faoliyatdagи mashg'ulotlar ya'ni rasm chizish, loyihalash, modellashtirish, dasturlarni bola bajaradi.

-O'yinlarni taklif eting (tasavvur, fantaziya, ijodiy tashabbusni rivojlantirish bo'yicha tadbirlar). Bu "teatr" bo'lishi mumkin, "zanjirda" o'yini orqali ertak yaratish va "rollar bo'yicha" ertaklarni o'qish.

-Uyqudan oldin, kun davomida bola bilan nima bo'lganligi haqida kechqurungi suhbatlar tavsiya etiladi. Qaysi voqealar va u nimadan mamnun. U ertaga nima qilardi.

- Bolada maktab o'quvchisining mavqeini shakllantirish, o'yindan o'rganishga o'tish uchun ixtiyoriy xulq-atvorning shakllanishiga e'tibor berish tavsiya etiladi, ya'ni ularning harakatlarini rejalashtirish, natijalarini ko'rish qobiliyatini rivojlantirish lozim. Buning uchun bola kunini bog'cha yoki dam olish kunlarini mustaqil ravishda rejalashtirishni taklif qilish mumkin. Kattalar qanday qilib aqliy ravishda uydan bog'cha, mакtab, do'konga yurishini aytib berishlari mumkin. Bola o'quv faoliyatining oddiy ko'nikmalarini o'rganadi, topshiriqni qabul qilish, uni amalga oshirish vositalarini tavsiflash qobiliyatini rivojlantiradi.



Agar bola xarxasha qilsa, kattalarning ko'rsatmalariga bo'y sunmasa, bolani o'z holicha qoldirish, uning yig'lab, baqirishlariga e'tibor bermaslik kerak, chunki salbiy namoyishlar kattalarga qaratilgan bo'lib, tomoshabinlar yo'q bo'lganda, bola tezroq tinchlanadi. Farzand bilan yolg'iz gaplashish, lekin unga nisbatan kmsitadigan munosabatni namoyon etish kerak emas. Uning fikrlarini tinglash va hohishlarini bilish kerak. Agar mumkin bo'magan narsani so'rasha yoki talab qilsa, unga nima uchun mumkin emasligini tushuntirish lozim.

### **Kichik mакtab yoshi davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha**

Bu davr 7 yoshdan to 12-yoshgacha davom etadi. Ushbu davrda o'sish va skelet suyaklarini qotishi davom etadi, oyoqlarning o'sishi hisobiga tana proporsiyalari o'zgaradi, mushaklar jadal rivojlanadi, katta yarim sharlar po'tslog'ining integratsiyalovchi roli ortadi, tormozlanish jarayonlari kuchayadi. Jigar, buyraklar, o'pka, yurak va boshqa a'zolar hamda to'qimalarning strukturaviy va funksional differensiyalashuvi yakuniga etadi. Qalqonsimon bez va gipofizning funksiyasi kuchayadi. Jinsiy bezlarning gormonal tasiri boshlanadi.

## Kichik maktab davri

### 5-rasm

#### Kichik maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy-psixologik portreti.

**2-jadval**

<b>№</b>	<b>Maktabga borish bilan bog'liq muammolar yoki qiyinchiliklar</b>	<b>Muammolarning echimi</b>
1.	Kunning yangi rejimi bilan bog'liq qiyinchiliklar. Ular maktabgacha ta'lim muassasalariga bormagan bolalar uchun eng ahamiyatlidir. Gap shundaki, bunday bolalar uchun maktabga borish uchun o'z vaqtida turishni boshlash qiyin, ular o'zlarini tutishlarini, ixtiyoriy ravishda tartibga solish darajasini rivojlantirishda ko'pincha orqada qoladilar.	- Bolani rejimga o'rgatish; - Budilnikning tovushiga uygo'nishga o'rgatish; - kechqurun belgilangan bir vaqtda uqlashi; - TV va kompyuter, telefonlarda o'yinlardan chetlatish.
2.	Bolani sinfga moslashtirishdagi qiyinchiliklar. Va bu holda, jamoaga moslasha olmagan bolalarda namoyon bo'ladi.	-Bolaga sinda do'st topishiga yordam berish; - Guruhli o'yinlarga qo'shish; -O'yinlarda yetakchilik rollarini bajarishga jalb etish.
3.	Bolaning o'qituvchi bilan munosabatlari sohasida qiyinchiliklar	- O'qituvchi tominidan e'tibor; - Topshiriqlar berish; - O'qituvchi unga ishonishini tez-tez takrorlab turish;


4.	<p>Bolaning uy sharoitidagi o'zgarish tufayli yuzaga keladigan qiyinchiliklar</p>	<p>"Bugun necha baho olding?" iborasini unuting. Boladan zudlik bilan maktabdagi o'qishlari haqida gapirishini talab qilinmaydi, ayniqsa ular charchagan yoki xafa bo'lgan bo'lsa. Unitinch qo'ygan, agar u otanonani qo'llab-quvvatlashiga amin bo'lsa, hamma narsani o'zi aytib beradi.</p>
----	-----------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

### **O'smirlik davrida fiziologik va yosh xususiyatlari**

O'rta maktab yosh davri. Bu davr 11-12 yoshdan to 15-yoshgacha davom etadi. Bu davr jadal o'sish va tana vaznini ortishi bilan tafsiflanadi. Tana proporsiyalari sekin asta voyaga etgan inson ko'rsatkichlariga yaqinlashadi. Jinsiy voyaga etish (o'g'il bolada 13-14, qiz bolada 11-12 yosh) va jinsiy bezlar gormonlarining tasirini ortishi ostida qalqonsimon bezning funksiyalari kuchayadi. Bosh miya katta yarim sharlarining qobig'i "organizmning barcha funksiyalarini bosh boshqaruvchisi va taqsimlovchisi" sifatida faoliyat ko'rsatadi. Qo'zgalish va tormozlanish jarayonlari muvozanatlasha boradi, farqlash va umumlashtirish funksiyalari, ayniqsa, ikkinchi signal tizimini rivojlanishi tufayli murakkablashadi.

## O'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari

### 6-rasm



Shunday qilib, o'spirin o'tish holatida, iloji boricha tezroq katta bo'lishga intiladi, lekin u hali ham kattalar hal qilishi mumkin bo'lgan murakkab va mas'uliyatli vazifalarni qanday hal qilishni bilmaydi

### SALOMATLIK

Har beshinchi o'smir qizdan "hammasi shunchalik umidsiz, faqt yig'laging keladi" degan so'zlarni eshitish mumkin. Yolg'izlik hissi va umidsizlik-qo'rqinchli holat. Husnbuzarlar va doimiy yog' ajralib chiqishi bu davrni yanada qiyinlashtiradi. Hayz kelishi va emotsiyonal beqarorlik hayotni yangi hissiyotlar bilan to'ldiradi.

Bulardan tashqari, qizlarda o'zlarini to'liq his qilmaslik holatlari yuzaga keladi. O'smirlik davri barcha o'smirlar uchun skeletni o'sishi va vaznini ortishi bilan xarakterlanadi. Bu holatlarni ayniqsa qizlar fojea sifatida qabul qilashadi.

Bu davrda ular oyna bo'lishlari va o'zlariga ora berib, kosmetikadan foydalanishlari davri bo'gan bir paytda ortiqcha vazn paydo boladi.

Keyingi bosqich—anoreksiya. Semirib ketishdan qo'rqib o'smir qizlar ovqatlanishdan voz kecha boshlaydilar, o'zlarini jismoniniy holsizlikkacha olib boradilar.

## TENGDOSHLAR

- Dugonalar bir-birlariga ta'sir qilishadi va bu do'stlikning mustahkamlanish davridir.
- Agar 11-12 yoshgacha uyda tinch o'tiradigan bo'lsa, endi ko'proq tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishni, ko'proq vaqt ni ular bilan o'tkazishga harakat qilishadi.
- Oilada qanchalik yaxshi munosabat bo'lmasin, qizlar o'zlarining dugonalarini hech kimga almashtirmaslikka harakat qiladilar, chunki aynan shu davrda sirdosh dugona paydo bo'ladi.

## O'SMIR QIZ VA OTA-ONA

1. O'smir qiz bilan munosabatda eng asosiysi – o'yin o'ynamaslik, uning fikrlarini hurmat qilishdir.
2. Bu yoshning xususiyatlardan biri bu tavakkalchilik bo'lib, u o'zini tasdiqlashni yaxshi ko'radi.
3. Yomor va optimizmni saqlash muhim. O'smir qizlar bo'layotgan voqealarni o'ta jiddiy qabul qiladilar. Ularning ustidan kulish, masxaralash mumkin emas.

## O'smirlar muammolarini hal etish yo'llari (kattalar uchun)

1. O'smirni o'z his-tuyg'ulari bilan bo'lishishga chorlang.
2. Vaziyat o'zgarishi mumkinligini yodda tutib, o'smir bilan yangi kun tartibini ishlab chiqish va har bir kun uchun erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash ustida ishlang.
3. O'smirning fikrini tinglang va o'rtangizda yuzaga keladigan nizolarni tinchgina hal qilishga harakat qiling. Esingizda bo'lsin: har bir kishi stressli vaziyatda!

4. Agar g'azablansangiz, hech qachon muammolarni muhokama qilmang. Ichkariga kiring yoki tashqariga chicing, chuqur nafas oling, tinchlaning. Muammoni keyinroq o'smir bilan muhokama qilishingiz mumkin.

5. Hokimiyat uchun kurashdan saqlaning. Hozir dunyo shunchaki oldindan aytib bo'lmaydigan bo'lib, o'smirlar "dunyodagi hamma narsani" boshqarish uchun kurashishlari mumkin, ammo ularning imkoniyatlari cheklangan. Qanchalik qiyin bo'lmasin, qarshilik ko'rsatish yoki ustunlikni qo'lga kiritishga urinishdan ko'ra, ushbu qiyin davrda o'spirinning nazoratni o'z qo'liga olish istagiga hayrihoh bo'ling.

6. O'spirin bilan rostgo'y bo'ling: unga qo'shimcha stressni boshdan kechirayotganingizni aytishingiz va his-tuyg'ularingizni baham ko'rishingiz mumkin. Qanday qiyin his-tuyg'ularni boshdan kechirganingizni bolaga tushuntiring bu unga boshdan kechirayotgan his-tuyg'ularning mutlaqo tabiiy ekanligini tushunishiga yordam beradi.

7. Agar ziddiyatli vaziyat yuzaga kelsa, uni o'zingiz va o'smir qanday hal qilishi mumkinligi haqida o'ylashga vaqt ajrating. Siz u bilan muammolarni hal qilish yo'llarini qanday topayotganingizni tushunishi uchun u bilan fikrlaringizni baham ko'rishingiz mumkin.

### **Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri-15 yoshdan 17 yoshgacha**

Yuqori maktab yoki o'spirinlik yosh davri. Bu davr qiz bolada 13 yoshdan to 18 yoshgacha, o'g'il bolada 15-16 yoshdan to 19-20 yoshgacha davom etadi.

Bu davr qiz bolada 13 yoshdan to 18 yoshgacha, o'g'il bolada 15-16 yoshdan to 19-20 yoshgacha davom etadi. Ushbu davr jinsiy bezlar funksiyasini kuchayishi, ikkilamchi jinsiy yakunlanishi bilan tavsiflanadi. Boshqa ichki sekretsiya bezlarining, ayniqsa, gipofiz va qalqonsimon bezning funksiyalari ham kuchayadi. Barcha a'zolar va tizimlar funksiyasi, uzlusiz rivojlanish oqibatida, sezilarli darajada takomillashadi.

## **Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik davrining o'ziga xos xususiyatlari**

### **7-rasm**



**Agar bolada o'ziga xos istaklari bo'lmasa, bundan tashqari chalkashliklar bo'lsa, kasb tanlashda unga qanday yordam bera olasiz? (kattalar uchun)**

- Avvalo, siz o'spirin bilan yaxshi muloqotlar qilishingiz, uning kelajak haqidagi orzulari va xayollarini tanqid qilmasdan suhbatlashishingiz kerak, agar kerak bo'lsa, ularni savollar yoki foydali ma'lumotlar bilan to'g'ri asoslang.
- O'spirin bilan birgalikda unga qanday qobiliyatlar berilganligi, uning o'ziga xos xususiyatlari qanday ekanligi haqida o'ylash foydalidir, shunda u o'zini rivojlantirishni xohlaydi.
- O'spirinning sevimli mashg'ulotlarini, o'yinlarini eslang - ehtimol uning fe'l-atvori va uning qobiliyatları haqida ma'lumot bo'lishi mumkin.
- O'spirin bilan universitetlarda o'tkazilgan "Ochiq eshiklar kuni" va kasbga yo'naltirish ko'rgazmalariga boring.
- O'spiringa o'zini qiziqtirgan kasblar to'g'risida ko'proq ma'lumot olishga yordam bering: tanishlari orasida o'zlarining kundalik hayotlarini aytib beradigan va ko'rsatadigan mutaxassislarni toping.

- Tanlangan kasblarga oid bir nechta kitob va maqolalarni oling, ushbu mutaxassislarning forumlari va veb-saytlarini toping. Ularning yordami bilan yoshlар o'z kelajagini, uning xususiyatlarini, turmush tarzini sinab ko'rishlari, yechilayotgan vazifalarni his qilishlari mumkin bo'ladi.
- Bolani kasbga yo'naltirish bo'yicha keng ko'lamlı sinovlardan o'tishiga yordam bering va birgalikda psixolog ma'lumotlariga, bolalarning xohishlariga, ota-onalarning tashvishlariga va hayot haqiqatiga tayanib, natijalarini batafsil muhokama qiling.

### Topshiriq. Inson hayot yo'linining xronologik jadvali

Topshiriq	To'g'ri javob		
O'zingizni tushunish uchun, hayotingizdagi ma'lum bir yosh bosqichining mazmunini, ayniqsa yoshti aniqlash uchun qanday savollardan foydalaniб, hayot yo'lingizning xronologik jadvalini tuzish mumkin?	<p>a) Siz qaysi oilada tug'ilgansiz? Bolaligingiz qanday o'tdi? Sizning oilangiz qanday yashagan? Uning a'zolari bir-biri bilan qanday munosabatda bo'lishgan?</p> <p>b) Sizning dastlabki xotiralaringiz qanday?</p> <p>v) Sizga nima yoqdi va mакtabda nimani yoqtirmadingiz? Ayni paytda ota-onangiz bilan munosabatlaringiz qanday rivojlandi? Do'stlaringiz kim edi? Sizni nima qiziqtirdi va kelajakdagi hayotingiz haqida nima deb o'ylaysiz?</p> <p>d) Katta bo'lganingizda nima o'zgargan? Kasbingizni qanday tanladitingiz? Bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazdingiz?</p> <p>e) Sizningcha, eng qiziqarli va muhim narsa nima? Sizning hayotiy rejalaringiz qanday?</p>		
	Asosiy sanalar	Voqeа, vaziyat, hodisa	Kechinmalar

## Nazorat savollari.

**1.Ilk bolalik (maktabgacha tarbiya yoshidan oldingi davr) davrlari nechchi yoshlarni qamrab oladi?**

- A. 1 yoshdan - 2 yoshgacha.
- B. Xomiladorlik davridan – 3 yoshgacha.
- C. Tug'ilganlan - 7 yoshgacha.
- D. Tug'ilganidan - 3 yoshgacha.

**2.Yosh davrlari inqirozlari nima?**

- A.** Ma'lum barqaror yoshda sodir bo'ladigan yosh rivojlanishining o'tish bosqichlari.
- B. Bir yoshda rivojlanish xususiyatlari
- C. Balog'at yoshida yuzaga keladigan holatlar
- D. Kichik maktab yoshidagi psixologik xususiyatlari

## **2-MAVZU. MAKTAB YOSHIDAGI QIZLARDA SOGLOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH**

**Reja:**

1. Salomatlik tushunchasini shakllantirish.
- 2.Ijtimoiy kasalliklar haqida ma'lumot va undan himoyalanish yo'llari.
- 3.Sogлом turmush tarsi.
- 4.Birinchi tibbiy yordam ko'satish.

### **8-rasm**



## O'z salomatligini asrash

**Salomatlik bu** – odatda, tanada xastalikning yo'qligi tushuniladi. Biroq, Juhon sog'liqni saqlash tashkilotining ta'rifiga ko'ra bu ancha keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, uni "faqatgina kasallikning bor yoki yo'qligi emas, balki insonning to'la jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy farovonligi", deb tushunish lozim.

**Salomatlik komponentlari** - ratsional ovqatlanish, doimiy jismoniy yuklamalarni bajarish, shaxsiy gigiyena, organizmni chiniqtirish, yomon odatlardan voz kechish.

### Salomatlik turlari.

**1. Somatik salomatlik** - odam tanasining genetik dasturlangan individual rivojlanishidir. U organizmning morfologik va funksional ko'rsatkichlariga bog'liq. Masalan, yurak urishi, qon aylanishi.

**2. Jismoniy salomatlik** - organizmning o'sish, rivojlanish va organizm tizimiga bog'liq. Jismoniy rivojlanish antropometrik, fiziologik va bioximik ko'rsatkichlarga bog'liq. Bu ko'rsatkichlar yosh, jinsi, yashash muhiti, ta'lim tarbiyaga qarab o'zgarishi mumkin. Har bir kishi o'z tana qismlarining qanday ishlayotganligini bilishi kerak.

**3. Ruhiy salomatlik** - ruhiy holatlar sferasi bo'lib, uning asosini umumiy ruhiy qulaylik tashkil etadi va adekvat xulq-atvor va hatti-harakatlarni amalga oshiradi va u o'z navbatida oliy asab tizimiga bog'liq. Ruhiy salomatlik biz qanchalik o'zimizni bilishimizga, o'z hissiyotlarimiz va holatlarimizni yaxshi taniy olishimizga, qaysi hatti harakat va hissiyotlar to'g'ri yoki noto'g'ri, salbiy yoki ijobjiy ekanligini bilishimizga bog'liq.

**4. Axloqiy salomatlik** - shaxsning motivatsion qadriyatlar tizimi, ustakovkalari, xulq atvor va hatti harakat me'yorlaridir. Axloqiy salomatlik biz jamiyatda nimani qadrlashimiz, nima biz uchun ahamiyatli va muhim ekanligiga bog'liq.

**5. Individual salomatlik** - biz o'zimizni shaxs sifatida qanday idrok etamiz, qaysi yo'nalishda o'zimizni rivojlantiramiz, shaxsiy va ijtimoiy hayotda nimaga erishmoqchimiz (oilada, professional rivojlanishda) shu kabi komponentlarga bog'liq.

**6. Ommaviy salomatlik** - mamlakatda aholi salomatligi qator demografik masalalar bilan (tug'ilish, o'lim, o'rtacha umr ko'rish) va ijtimoiy tibbiy (umumiy yuqumli, onkologik kasalliklar darajasi) xarakterlanadi.

**7. Reproduktiv salomatlik** - reproduktiv organlarning funksional holati (farzand ko'rish imkoniyati).

## Salomatlik ko‘rinishlari.

1. Kuchli immun sistema
2. Organizmning o‘sishi va rivojlanishi
3. Organizmning zahirasi - organizmning maksimal imkoniyatlari
4. Ma’naviy iroda va qadriyatlar motivastiyasining ustanovkasi.

**Ambulator davolash** - bemor o‘z uyida qolib, yaqin poliklinikaga chiqib, kerak bo‘lgan muolajalarini qabul qiladi.

**Stastionar davolanish** - bemor kasalxonaga yotqiziladi.

Aholining sog‘lom bo‘lib o‘sishi va rivojlanishi, uzoq umr ko‘rishini ta’minalash ustuvor yo‘nalishlardandir.

Mamlakatimizda kasalxona, poliklinika va ambulatoriyalar, ayollar konsultatsiyalari, dispanserlar, sanatoriya profilaktika muassasalari, bolalar boshqa tibbiyot muassasalarining keng tarmog‘i mavjud. Sanitariya – epidemiologiya xizmati mamlakatning sanitariya holati ustidan nazorat o‘rnatib, yuqumli va boshqa kasalliklarning muntazam kamayib borishini ta’minalaydi, atmosfera havosi va suv havzalarini sanoat hamda turmush chiqindilari bilan ifloslanishdan asraydi.

Bugungi kunda dolzarb bo‘lgan masalalardan biri ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardir.

**Ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar bu-ijtimoiy iqtisodiy sharoitga bog‘liq, jamiyatga katta zarar yetkazadigan va insonni ijtimoiy himoya qilishni talab etadi.**

Sil, onkologik, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar, OIV, moxov (lepra) kasalligi, ruhiy kasalliklar.

**Sil-yuqumli kasallik bo‘lib, kox tayoqchalari ya’ni bakteriyalari o‘pka yoki tananing boshqa qismini shikastlaydi.**

*Qon ketishi yoki qonning biror yerda  
to`planib qolishiga nisbatan turli xil  
atamalar:*



**Onkologik kasallik** - inson organizmida paydo bo'ladigan zararli o'simta.

**Jinsiy yo'l bilan o'tadigan kasalliklar** - asosan jinsiy aloqa paytida yuqadi. Kishining reproduktiv salomatligiga ta'sir ko'rsatadi.

**OIV**- orttirilgan immun tanqisligi. Inson organizmi turli kasalliklar bilan kurasha olmaydi.

**Moxov (lepra) kasalligi** - moxov [arab. mahv – yo'q qilish yoki chetlatish], lepra, prokaza – butun organizmni, xususan, teri, nerv tizimi hamda ichki a'zolarni zararlaydigan surunkali infektion kasallik. Uni kislotaga chidamli moxov mikobakteriyasi (*Mycobacterium leprae Hansen*) qo'zg'atadi.

**Ruhiy kasalliklar** - ruhiy kasalliklar, psixozlar – bosh miya faoliyatining buzilishidan kelib chiqadigan kasalliklar: ruhiy faoliyatning funksional o'zgarishidan to uning butunlay buzilishigacha bo'lgan holatlar. Psixik kasalliklarda bemor voqelikni to'g'ri idrok etolmaydi, shu jihatdan psixik kasalliklar ichki kasalliklardan farq qiladi. Psixik kasalliklarning sabablari xilma-xil, bular orasida irsiy omil (nasl) asosiy o'rinni tutadi. Masalan, oligofreniya, psixopatiya, manakal-depressiv psixoz, epilepsiya va shizofreniyaning kelib chiqishida kishining nasl-nasabi muhim rol o'yndaydi. Psixik kasalliklarning paydo bo'lishi va avj olishiga infektion kasalliklar, bosh miyaning shikastlanishi, intoksikasiya, ruhiy iztiroblar ham sabab bo'lishi mumkin.

### **Yuqumli kasalliklarning oldini olish usullari**

Yuqumli kasalliklarga bakteriyalar, viruslar, parazitlar va boshqa mikroorganizmlardan kelib chiqadigan kasalliklar guruhi kiradi.

Samarali profilaktika, ya'ni emlash, gigiyena, sog'lom turmush tarzi ulardan himoya qilishga yordam beradi.

Yuqumli kasalliklarning oldini olish har bir inson uchun talab qilinadi, chunki har kimga yomon ekologiya, sog'lom tamoyillarga to'g'ri kelmaydigan ovqatlanish ta'sir qiladi. Immunitetning zaiflashishi tufayli organizm turli xil kasalliklarga duchor bo'ladi, so'ngra viruslar, bakteriyalar va boshqa mikroorganizmlar faol rivojlanib, mutatsiyaga uchraydi.

Viruslarning tez rivojlanishi har bir inson uchun xavflidir, keyin epidemiya va pandemiya paydo bo'ladi. Samarali profilaktika choralarini bunga yo'l qo'ymaydi, ammo ularni faqat doimiy ravishda kuzatib borish kerak. Profilaktika maxsus va maxsus bo'lmagan turlarga bo'linadi, ammo ikkala turning ham ma'nosi yuqumli kasalliklardan himoya qilish bo'yicha oddiy tavsiyalarga amal qilishdir.

## **Infeksiyalar qanday yuqadi?**

Har qanday profilaktika choralarini ko'rishdan oldin, u yoki bu Infeksiyaning tanaga qanday kirib borishini bilish kerak. Shunga asoslanib samarali himoya usulini tanlash mumkin.

### **Yuqtirishning quyidagi usullari ma'lum:**

- **havo orqali: qizamiq, qizilcha, suvchechak, gripp, ko'k yo'tal, o'tkir respirator virusli kasallik;**
- **fekal-oral: o'tkir ichak Infeksiyalari;**
- **o'zaro aloqa: herpes, qoraqo'tir, qoqshol, mikrosporiya;**
- **transmissiv orqali yuqadigan: bezgak, Layma kasalligi, ensefalit.**

## **MAXSUS PROFILAKTIKA**

Bu kasallikning oldini olish va asoratlardan himoya qiluvchi vaktsinalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Kasallikni kamaytirish uchun emlash kerak. Ular ko'plab o'tkir va surunkali kasalliklarga qarshi kurashda samaralidir.

Maxsus profilaktika odamlarni tug'ilishidan qarigacha emlashni o'z ichiga oladi.

Maxsus profilaktika eng samarali hisoblanadi. Emlash 80-90% hollarda himoya qilishga imkon beradi, shuning uchun bu hatto sog'lom bolalar uchun ham muhimdir. Maxsus profilaktika tezda natija beradi, faqat o'z vaqtida emlash kerak.

## **MAXSUS BO'L MAGAN PROFILAKTIKA**

Infeksiyalarni oldini olishda samarali bo'lib, quyidagi dorilarni o'z ichiga oladi:

- **virusga qarshi dorilar;**
- **immunobiologik vositalar;**
- **kimyoviy dorilar.**

Bundan tashqari, maxsus bo'l magan profilaktika sanitariya-gigiyena va sog'lomlashtirish jarayonlarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

- Qo'lni sovun va suv bilan muntazam yuvib turish kerak.
- Shaxsiy gigiyena vositalaridan foydalanish kerak: sochiqlar, tish cho'tkalari, taroqlar, manikyur va pedikyur to'plamlari.
- Uydan tashqarida nam salfetkalar va mikroblarga qarshi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.
- Siz burun va og'zingizga tez-tez tegmasligingiz kerak, chunki ular orqali tanaga viruslar yoki bakteriyalar tushishi mumkin.
- Xonani tez-tez shamollatish kerak va iliq davrda ochiq shamollatish bilan uqlash kerak.

- Uyda namlagichni o'rnatish kerak, chunki u sizni isitish mavsumida quruqlikdan xalos qiladi.

Turmush tarzi muhim. Kundalik tartib, ish va dam olish tamoyillariga amal qilish kerak. Taomnomada yangi sabzavot va mevalar, sharbatlar, o'simlik choylari bo'lishi kerak. Tanani doimo chiniqtirib borish kerak. Har bir inson uchun individual profilaktika mavjud.

### **Havodan yuqadigan Infeksiyani oldini olish**

Chiniqish va tizimli mashqlar talab qilinadi. Xona doimo dezinfekstiya qilinishi va shamollatib turilishi kerak. Epidemiya paytida niqob taqish kerak.

Burun va og'iz shilliq pardasini antiseptik vositalar bilan tozalash kerak. Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish lozim. Yuqumli kasalliklarni davolash paytida gavjum joylarga tashrif buyurmaslik kerak. Shifokor tavsiyasi bilan turli xil dori-darmonlardan foydalanish mumkin (tabletkalar, malhamlar).

### **Og'iz-najas ifloslanishini himoya qilish uchun nima qilish kerak?**

Ovqatlanishdan oldin, hojatxonadan keyin, ko'chadan keyin, albatta, qo'lni sovun bilan yuviladi. Oziq-ovqat sotib olishdan oldin, yaroqlilik muddatiga e'tibor berish kerak. Xom va pishirilgan ovqat bir-biriga tegmasligi kerak. Mahsulotlarga termik ishlov berilishi kerak. Faqat qaynatilgan yoki butilkali suv ichish lozim. Pishgan ovqatni muzlatgichda 3 kundan ortiq saqlash mumkin emas.

### **Aloqa Infeksiyasining oldini olish**

Ko'p odamlar foydalanadigan narsalar bilan ehtiyojkorlik bilan muomala qilish kerak (masalan, bog'dagi o'yinchoqlar). Jamoat hammomlariga, saunalarga bormagan ma'qul. Asosiy gigiyena qoidalariga rioya qilish muhimdir. Bunday profilaktika uchun dori-darmonlar yo'q, faqat o'ziga xos kasalliklarni davolash vositalari mavjud.

### **Transmissiv kasalliklarning oldini olish**

Kasalliklar manbalari ko'pincha hasharotlar tomonidan tashilganligi sababli, ularning hujumidan shaxsiy himoya qilish uchun choralar zarur (himoya kiyim, poyabzal, repellents). Shuningdek, ekvatorial mamlakatlarga sayohat qilishdan oldin albatta kerakli emlshdan o'tish kerak.


Zamonaviy dunyoda odamlar uchun xavfli bo'lgan ko'plab mikroorganizmlar rivojlanmoqda. Har qanday yuqumli kasallikning oldini olish uzoq muddatli davolanish va tiklanishdan ko'ra osonroqdir. Oddiy mashg'ulotlar bolalar va kattalar uchun foydali bo'ladi.

## 9-rasm



## 10-rasm

### SOGLOM TURMUSH TARZI



O'zbekistonda aholi salomatligiga katta e'tibor berilib "Sog'lom turmush tarzi" platformasi faoliyati tashkil etildi. Platforma aholini kunlik yurish va yugurishga targ'ib qilish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, u orqali:

- ✓ O'zbekiston hududida bir sutka davomida o'n ming va undan ortiq qadam yurgan 18 va undan yuqori yoshdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarosining platformadagi elektron hamyoniga 3 ming so'mdan;

- ✓ har oyda har bir tuman (shahar) bo'yicha eng ko'p yurgan shaxsga 300 ming so'mdan, har bir hudud bo'yicha eng ko'p yurgan shaxsga 500 ming so'm, respublika bo'yicha eng ko'p yurgan shaxsga 1 mln so'm qo'shimcha ravishda platformadagi elektron hamyoniga o'tkaziladi.

**Sog'lom turmush tarzi.** Sharotlarni yaratish bilan bir qatorda aholining o'z sog'lig'iga ma'suliyatini oshirish, ya'ni har bir fuqaroda sog'lom turmush tarzi shakllantirishdek muhim hayot zarurati tobora ayon bo'lib bormoqda. Zamon tibbiyoti yutuqlari, sog'lom turmush tarzi kechiruvchi kishilarning hayot tajribalari, ilm-fan yutiqlarining odam organizmi sir asrorlariga chuqurroq kirib borishi, har bir organizmga individual yondashishga to'g'ri keldi. Shu bilan o'z navbatida organizm talablariga mos turmush tarzi va sog'lomlashtirish usullarini qo'llash, tibbiyotda mutloqo yangi oqimni, ya'ni sog'lom turmush tarzi oqimini yuzaga keltirdi.

Bu oqimda har bir organizmga o'ziga xos yondashish, unga mos ovqatlanishni tashkil qilish, kun tartibi, shunga o'xhash munosobatlar va boshqalarni tashkil qilishga asoslangan. Deyarli har bir kishi ertami kechmi sog'liq bilan bog'liq muammoga duch keladi. Chunki kishilar o'rtaida uchrayotgan o'limning asosiy sababchisi kasalliklar va baxtsiz hodisalar bo'lib qolmoqda.


• Turmush tarzi, salomatlik o'zgarishlarini asosiy tendensiyalarini aniqlaydigan yetakchi umumlashgan omil bo'lib inson hayot faoliyatining turli sifatlarida ko'rib chiqiladi. Turmush tarzini tibbiy ijtimoiy ta'rifi bilan birgalikdagi strukturasiga quyidagilar kiradi:

- Mehnat faoliyati va mehnat sharoiti;
- Maishiy xo'jalik faoliyati (yashash joyining turi, yashash maydoni, maishiy sharoitlar, maishiy faoliyatga vaqtning sarflanishi va boshqalar);
- Jismoniy kuchlarni tiklash va atrof muxit bilan munosobatlarga yo'naltirilgan regression faoliyat;
- Oiladagi ijtimoiylashtiruvchi faoliyat. (bolalarni, keksa yoshdagilarni parvarishlash);

- Oilani rejalashtirish va oila a'zolari orasidagi munosabatlar;
- Ijtimoiy-psixologik mavqeい va o'zini tutish xususiyatlarini shakllanishi;
- Tibbiy ijtimoiy faollik (salomatlik va tibbiyatga munosabatlar, sog'lom turmush tarzini amalga oshirish) turmush tarzi bilan quyidagi tushinchalarni – hayot darajasini (odam boshiga to'g'ri keladigan foyda), hayotning turmush sifati (insonning moddiy ta'minlanganlik darajasini ta'riflovchi parametrlarni o'chash), yashash uslubi(o'zini tutishning psixologik individual o'ziga xosligi) yashash tartibi(turmush madaniyati va boshqalar).

**Inson tanasining tashqi va ichki muhitidagi xavf omillari, ularning sog'liqqa ta'siri.**

### 11-rasm



### 12-rasm

Jismoniy ta'sir	
	Issiq havoda bosh kiyimda yuring
	Quyoshda me'yorda tovlaning
	Quyoshda kuniga 2 soatdan ko'p yurmang
	Yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari yaqinida yurmang



Elektr jihozlari bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariiga rioya qiling

### 13-rasm

#### Kimyoviy xavf omillari



Konservantlar, yuvish vositalari, tozalovchi va dezinfeksiya lovchi vositalar, shuningdek har xil buyumlarni bo'yash va yopishtirish uchun vositalar.



Ishga kirishishdan oldin yo'riqnomada ko'rsatilgan xavfsizlik choralarini diqqat bilan o'qing va ularga qat'iy rioya qiling.

### 14-rasm

#### Biologik xavf omillari

Inson tanasiga shubhasiz zararli (xavfli) mikroorganizmlarning kiritilishi deyarli har doim yuqumli kasallikni keltirib chiqaradi.

Qoidalarga rioya qiling:

	<b>Umumiyl va shaxsiy gigiyena</b>	
	<b>Ovqat tayyorlash</b>	
	<b>Kiyim gigiyenasi</b>	
	<b>Uy gigiyenasi</b>	
	<b>Bog' gigiyenasi</b>	

### 15-rasm



#### Ijtimoiy xavf omillari

Kelajakdagi noaniqlik, voqealar, hodisalar, vaziyatlar, urf-odatlar, qarashlarning yo'q qilinishini bashorat qila olmaslik

Zararli ta'sirlarni kamaytirish: tinch va ilg'or, jamiyatning rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlar

## 16-rasm

### Ruhiy ta'sir

**Inson hayotining o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq  
(oila va mактабдаги микройлим)**



### Sog'likni yaxshilash

Hamjihatlik, mehr-oqibat, oila a'zolari va sinfdoshlarining (tengdoshlari) o'zaro yordami va qo'llab-quvvatlashi ijobiy mikroiqlimni, yaxshi kayfiyatni, mehnatga ehtiyojni va uning natijalaridan qoniqishni yaratadi.



## BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATA OLISH KO'NIKMALARI.

### “YONG‘IN”, “SUV TOSHQINI”, “AVTOXALOKAT” VA BOSHQALAR

Inson dunyoga xavfga nisbatan uchta tayor javob reaksiyasi bilan tug'ladi: kurash, qochish yoki qotib qolish. Agar xavfga nisbatan kurash imkon bo'lса inson kurasha oladi. Agar kurasha olmasa uni qutqarish kerak bo'ladi. Agar insonda boshqa imkoniyat bo'lmasa, u qotib qoladi yoki yashirinadi.

### Siz maxsus ko'nikmalarsiz boshqalarni qutqarishga harakat qila olasizmi?

Ushbu masala bo'yicha mutaxassisning fikri shubhasizdir: «Siz boshqalarga qanday yordam qilishni bilganingizdagina qutqarishingiz mumkin. Agar bilim tajribangiz bo'lса, ha, albatta. Ammo agar u yo'q bo'lса, siz faqat professionallarga xalaqit berishingiz mumkin». Lekin hayot doimo tasodiflarga to'la, shuning uchun har kim birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha bilim va tajribaga ega bo'lса, foydadan xoli bo'lmaydi.

**Birinchi tibbiy yordam.** Birinchi yordam baxtsiz hodisalar ro'y berganda, kishi shikastlanganda yoki to'satdan kasal bo'lib qolganda, uning hayotini saqlab qolish va yomon asoratlardan omon qolishi uchun ko'rsatiladigan tez va oddiy tadbirlar majmui: tibbiy xodim yetib kelgunga qadar yoki ularni kasalxonaga olib borgunga qadar amalga oshiriladi. Birinchi yordam o'z-o'ziga yoki boshqalar tomonidan (o'zaro) ko'rsatilishi mumkin. Shikastlangan odam jarohatini o'zi bog'lay olsa, zaharlanish alomati bo'lganda, masalan ko'p suyuqlik ichib me'dani yuvish va qayd qilishga quvvati etsa, o'z-o'ziga yordam ko'rsatishi mumkin. Kishining hayoti xavf ostida qolganda, masalan tok urganda, zaharlanishda, koma, shok va boshqa holatlarda darhol birinchi yordam ko'rsatish lozim. Keyingi ko'rsatiladigan tibbiy yordam birinchi yordamning qanchalik to'g'ri ko'rsatilganligiga bog'liq. Masalan, suyak ochiq singanda bog'lov va to'g'ri qo'yilishi, ko'pincha shok va boshqa og'ir holatlarda shikastlanib behush bo'lgan kishini yonboshi bilan yotqizish traxeya va bronxlarga quyuq massasi hamda qon ketib qolmasligiga yordam beradi.

Birinchi yordam uch xil tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi.

1. Tashqi shikastlovchi omillar (elektr toki, bosib qolgan og'ir narsa, suvga cho'kish va boshqalar) ta'sirini darhol bartaraf etish yoki shikastlangan kishini noqulay sharoitdan holi qilish (suvdan, o't tushgan joydan olib chiqish va boshqalar).
2. Shikastlanish darajasiga qarab birinchi yordam ko'rsatish (suyak chiqishi, sinishi, zaharlanishi, hushdan ketish, jarohatlanish, qo'yish ).
3. Yaqin atrofdagi kasalxona, poliklinikaga yetkazish.

Odam to'satdan betob bo'lib kelganida, turli xil baxtsiz hodisalar ro'y bergenida, albatta, tez yordam chaqirish, noiloj qolgan hollarda duch kelgan transportda davolash muassasasiga olib borish zarur. To'g'ri tibbiy yordam ko'rsatish uchun uyda dori qutichada birinchi yordam uchun zarur bo'lgan hamma narsa bo'lishi kerak.

## Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha har bir inson bilishi zarur bo'lgan 5-ko'nikma

Yoqimsiz holatlar kutilmaganda ro'y berishi mumkin, shu bois har qanday vaziyatda ham ularga tayyor turish kerak, ayniqsa boshqa bir insonning hayoti sizning ko'nikmalaringizga bog'liq bo'lsa. Don't Panic birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha har bir inson bilishi kerak bo'lgan besh asosiy tamoyili bilan bo'lishdi.

**Sun'iy nafas** har bir inson bilishi kerak bo'lgan elementar reanimatsion xatti-harakatlar sirasiga kiradi. Jabrlanuvchiga kislorod yetkazish uchun shunchaki yuzma-yuz nafas olishning o'zi kifoya, deb o'ylamang. Birinchi navbatda, nafas yo'llarini tekshirib, zarurat tug'ilgan taqdirda, biror bir predmet, qon yoki balg'am bo'lsa, tashqariga chiqarib tashlash kerak. Ilk 10 daqiqada havo yuborishni tezlikda bajaring, keyin esa bir daqiqada 20 nafas ritmini qo'llang. Yodingizda bo'lsin: agar insonning ko'krak qafasi ko'tarilayotgan bo'lsa, demak, barchasi to'g'ri ketmoqda.

**Yurak massaji.** Agar jabrlanuvchining pulsi yo'qligini sezsangiz, yurakni massaj qilish kerak. Ko'krak qafasining eng qisqa va tor qismini aniqlang va uning chetidan 2-3 santimetr o'lchang - bu kompressiya nuqtasi bo'ladi. Kafning asosini shu yerga qo'ying, uni ikkinchi kaft bilan yoping - bosim aynan shu qismlar bilan amalga oshiriladi. Ritmik bosimlarni kuchli, vertikal yo'nalishda amalga oshiring. Biroz ter to'kishingizga to'g'ri keladi: chastota daqiqsiga 110 martani tashkil qilishi kerak. Puls bo'lsa, yurak massajiga hojat yo'q.

**Geymlix usuli.** Bu usulni Amerika kinofilmlarida namoyish qilishni yaxshi ko'rishadi. Jabrlanuvchining orqasiga turib olasiz, uni kindik sohasining yuqori qismidan, qovurg'alar ostidan ushlaysiz. Shundan so'ng kuch bilan uning qornini bosasiz – bu harakatni odatda bir necha marta takrorlashga to'g'ri keladi.

**Xushdan ketish** kislorod yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladi – miyada qon aylanish buziladi va organizm tanani o'chirishga buyruq beradi.

Bu yerda bir narsani anglab yetish muhim – inson tetiklashtiruvchi havo oqimi ko'paygandagina tezroq o'ziga keladi. Jabrlanuvchini oyna yaqiniga yotqizing va uni havoni to'suvchi kiyim yoki aksessuarlardan xalos qiling. Yuzga suv purkash zarar qilmaydi, agar qo'l ostingizda dorilar qutisi bo'lsa, nashatir spirtidan foydalaning.

**Oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanganda,** birinchi navbatda, oshqozonni zaharli yegulik qoldiqlaridan tozalash kerak. Buning uchun eng yaxshisi – bir litr suvgaga 10 gramm tuz solingan suvni ichish maqsadga muvofiq. Qayd qilish holatini keltirib chiqarish uchun bunday suvning 2-3 piyolasi yetarli. Ovqat toksikolinfeksiya sida maxsus parxez talab qilinadi.

 **Topshiriq. Turli vaziyatlarda yordam ko'rsatish va o'zini himoya qilish amaliy ko'nikmalarini shakllantirish usullari.**

Topshiriq	To'g'ri harakat
Ko'chada bir o'quvchi qiz ketdi. Siz nima qilasiz?	Xushdan ketish kislorod yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladi – miyada qon aylanish buziladi va organizm tanani o'chirishga buyruq beradi. Bu yerda bir narsani anglab yetish muhim – insonni tetiklashtiruvchi havo oqimi ko'paygandagina tezroq o'ziga keladi. Jabrlanuvchini oyna yaqiniga yotqiziladi va uni havoni to'suvchi kiyim yoki aksessuarlardan xalos qilinadi. Yuzga suv purkash zarar qilmaydi, agar yaqin joyda dorilar qutisi bo'lsa, nashatir spirtidan foydalniladi

## Nazorat savollari.

### 1. Qanday vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish mumkin?

- A. Avtoxalokatda, yong'inda, suv toshqinida, oziq-ovqat yoki is gazidan zaharlanganda
- B. Suv toshqinida, xavo harorati yoqori darajaga ko'tarilganda
- C. Yuqimli kasalliklar tarqalganda, depressiya xolatida
- D. Avtoxalokatda, is gazidan zaharlanganda

### 2. Ovqat toksikolinfeksiya larining o'ziga xos xususiyati nimada?

- A. Maxsus parvez talab qilinishida
- B. Kasallikning tez davo topishida
- C. Kasallikning yashirin davri qisqaligida
- D. Kasallikning bemordan sog'lom odamga o'tmasligida**

### ⌚ Topshiriq. Gigiyyena qoidalari

Topshiriq	To'g'ri javob
Qaysi holatlarda qo'llarni, albatta, sovunlab yuvish kerak?	<ul style="list-style-type: none"><li>• hojatxonadan chiqqandan keyin;</li><li>• ovqat pishirish oldidan;</li><li>• hayvonlarga qaralgandan so'ng;</li><li>• ko'chadan uyga qaytgandan keyin;</li><li>• ovqatlanishdan avval;</li><li>• har qanday yumushni bajargandan so'ng;</li><li>• yo'tal va aksirishdan keyin;</li><li>• ko'chadagi mashg'ulotlar (o'yinlar, bog'da ishlash, it va mushuklar bilan o'ynash)dan so'ng.</li></ul>

## Nazorat savollari.

### 1. Nechta salomatlik turlari mavjud.

- A. 7**
- B. 6
- C. 5
- D. 4

## **2.Ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar nima?**

- A. Har qanday sharoitda yuzaga keladigan va davolanmaydigan kasalliklar
- B.** Ijtimoiy iqtisodiy sharoitga bog'liq, jamiyatga katta zarar yetkazadigan va insonni ijtimoiy himoya qilishni talab etadigan kasalliklar.
- C. Faqat urush vaqtida yuzaga keladigan kasalliklar
- D. Tabiiy ofatlar vaqtida yuzaga keladigan kasalliklar

### **☞ Topshiriq "Sog'lom turmush tarzi" platformasi**

<b>Topshiriq</b>	<b>To'ri javob</b>
"Sog'lom turmush tarzi" platformasi nima va qachon yaratilgan? Ushbu platformani yanada mukammallashtirish uchun qanday takliflar berasiz?	Aholini kunlik yurish va yugurishga targ'ib qilish maqsadida "Sog'lom turmush tarzi" platformasi 2021-yil 28-aprelda yaratilgan.

### **Nazorat savollari.**

#### **1. Qanday sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar mavjud?**

- A.** Piyoda yurish, yugurish, sayr qilish, velosipedda yurish
- B. Piyoda yurish, yugurish, uplash
- C. Uplash, yugurish, mazali tushlik qilish
- D. Sayr qilish, velosipedda yurish, uplash

#### **2. Salomatlikka salbiy ta'sir etuvchi omillar?**

- A. Yuqumli kasalliklar bilan kasallanish
- B. Yomon illatlardan tiyilish
- C. Organizmni chiniqtirish
- D.** Noto'g'ri ovqatlanish, tartibsiz hayat faoliyati, zararli odatlar bilan shug'ullanish

## **3-MAVZU:MAKTAB YOSHIDAGI QIZLARNING REPRODUKTIV SALOMATLIGINI TARBIYALASH**

**Reja:**

1. Reproduktiv salomatlik tushunchasi.
2. Reproduktiv salomatlikning ijtimoiy-tibbiy-psixologik -pedagogik jihatlari.
3. Shaxsiy gigiyena qoidalari.
4. Maktabgacha yoshdagagi qizlarning gigiyenasi (7 yoshgacha) va maktab yoshidagi qizlar gigiyenasi.
5. Jinsiy tarbiya asoslari.



**Reproduktiv salomatlik bu-hayotning barcha bosqichlarida reproduktiv tizim bilan bog'liq barcha sohalarda jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir.**

Reproduktiv salomatlik umumiy sog'linqing muhim qismidir va hayotning shaxsiy jihatlariga qamrab oladi. Reproduktiv salomatlik inson qoniqarli va xavfsiz jinsiy hayat kechirishi va farzand ko'rishini taxmin qiladi. Ushbu konseptsiya ko'p qirrali, bir qator omillardan iborat: ijtimoiy-iqtisodiy, irlsiyat, bolani ona qornida rivojlanish shartlari va homiladorlik va tug'ruqning xususiyatlari, jismoniy salomatlik, balog'at yoshidagi reproduktiv xatti-harakatlar; ekologiya, oilaviy sharoit va turmush tarzi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli farmoniga asosan aholining reproduktiv salomatligini muhofaza qilish va sog'lom oilani shakllantirish yuzasidan bir qator ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-martdagи “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasida “Fuqarolarning reproduktiv salomatligi” yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berilgan.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligi insonning jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan sog'lomligi holati bo'lib, bu holat uning bola tug'ilishiga qodirligini belgilaydigan reproduktiv tizumi, ushbu tizimning funksiyalari, hayotiy jarayonlari bilan bog'liq bo'ladi.

## **Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash:**

- ✓ Fuqarolarning reproduktiv salomatligi to'g'risida ishonchli va to'liq axborot olishni;
- ✓ Qizlarning reproduktiv salomatligi holati-bu atrof-muhitning salbiy ta'sirining ko'rsatgichidir. Turli mintaqaviy sharoitda voyaga yetayorgan qizlar reproduktiv holati turlichadir. homiladorlikni saqlab yurishni va bolaning asoratlarsiz hamda nuqsonlarsiz tug'ilishini ta'minlaydigan, homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davrdagi tadbirlar, muolajalar hamda xizmatlarni;
- ✓ reproduktiv tizim kasalliklarining oldini olishni va ularni davolashni;
- ✓ jinsiy yo'l bulan o'tadigan kasalliklarning oldini olishni va ularni davolashni;
- ✓ ehtimoldagi asoratlarning va reproduktiv tizim funksiyalari buzilishi oqibatlarining oldini olishga ko'maklashgan holda homiladorlikni xavfsiz ravishda sun'iy to'xtatishni;
- ✓ kontrasepstiya usullari va ulardan foydalanish to'g'risida axborot olishni nazarda tutadi.

Shu qonunning 10-moddasida “Fuqarolarning reproduktiv huquqlari” yoritilgan.

Fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:

- ✓ xavfsiz va samarali reproduktiv texnologiyalardan foydalangan holda o'z farzandlarining tug'ilishi xususida mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishi;
- ✓ o'zining reproduktiv salomatligi to'g'risida ishonchli va to'liq axborot olishi;
- ✓ tug'ilishni tartibga solishning xavfsiz usullaridan va kontratseptsiyadan foydalanishi;
- ✓ tibbiy-profilaktika xizmatlaridan foydalanish va sog'liqqa xavf soluvchi vositalardan, shu jumladan ilmiy tajribalar qo'llanilishidan himoyalanishi;
- ✓ o'z reproduktiv huquqlarini amalga oshirish chog'ida tibbiy-ijtimoiy, shuningdek psixologik yordam va axborot olishi;
- ✓ yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanishi;
- ✓ yuridik va jismoniy shaxslar fuqarolarning o'z reproduktiv huquqlarini amalga oshirilishi bilan bog'liq axborotni sir saqlashlari shart.

## QIZLAR GIGIYENASI

Jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'l mish oila yaratuvchilari, sog'lom avlodni dunyoga keltiruvchi qizlarning salomatligi muhim o'rinni tutadi. Oilada qiz tug'ildi. O'zbek oilalarida qiz bolaning iffatli, latofatli va nazokatli bo'lib o'sishiga, murg'aklik davridanoq alohida e'tibor beriladi. Xo'sh, qiz bolalarning jinsiy tarbiyasida nimalarga ahamiyat berish zarur?

Albatta, qiz bolaning jinsiy tarbiyasida ko'plab o'ziga xos jihatlar mavjud. Qiz bola tashqi ta'surotlarga o'ta sezuvchan bo'ladi. Qizaloq bir yoshga to'Igunga qadar uning suyak tuzilishi to'g'ri rivojlanishiga ahamiyat berish zarur. Jumladan, raxit kasalligida skelet muskulaturasi tonusining oshishi qiz bola chanog'inining tor va yassiroq bo'lib qolishiga olib keladi. Bu hol o'z navbatida jinsiy a'zolar rivojiga ham aks ta'sir ko'rsatadi. Goho ulg'ayib turmush qurilganda odatiy tug'ruq yo'llarining torayganligi bois, tug'ish asoratli kechishiga ham bolalik davridagi befarq munosabat sabab bo'lishi mumkin. Go'dak beqiyos ona suti va tabiiy ne'matlardan qancha uzoq muddat bahramand bo'lsa, uning zuvalasi shuncha pishiq bo'ladi. Raxitni imkon qadar tezroq, shifokor nazoratida D-guruhidagi darmondorilarni tayinlash, quyosh nuridan bahramand etish bilan davolash lozim.

Maktab yoshidagi qizaloqlarda ancha tortinchoqlik, uyatchanlik ustuvor bo'lishini ota-onalar va muallimlar ko'zda tutishlari joiz. Zero, qizaloqlarda peshob qopi va to'g'ri ichakning to'lib ketishi, ya'ni hojatga ehtiyojmand bo'lsada, qimtinib o'z paytida chiqmasliklari bachadonning joyidan surilib, asta-sekinlik bilan egilib qolishi kabi xatarli asoratga olib keladi. Bunday holatlar keyinchalik bepushtlikka sabab bo'lishini unutmasligimiz joiz. Shu sababli ham dars o'tilayotgan paytda qizlar uchun hatto ruxsatsiz birrovga chiqib kelishlariga qarshilik qilinmasa, nazarimda ayrim ko'ngilsiz holatlarning oldi olingan bo'lardi.

### **Reproduktiv salomatlik va shaxsiy gigiyena**

Qiz bola jinsiy tarbiyasida ahamiyat berishlik joiz bo'lgan holatlar:

a) Qiz bola bir yoshdan boshlab faqat onasi yordamida cho'miltirilishi, aka-ukachalari bilan bir vannada cho'milmasligi lozim;

b) O'g'il bolalar xush ko'ruvchi toychoq, velosiped kabi tos a'zolarini ta'sirlantiruvchi o'yinchoqlar, qizaloqlarda jinsiy a'zolar sezuvchanligini oshirib, iffat pardasiga darz yetkazish ehtimoli mavjudligini unutmaslik kerak;

v) Qizaloqlar ota-onalarda jinsiy munosabatidan imkon qadar bexabarroq bo'lishi joizligi sabab, yotoqonalar alohidaligi, ichki kiyimlarning esa ko'zdan yiroq bo'lganligi ma'qulroqdir;

g) Jinsiy a'zolar ozoda tutilishi zarur; o'g'il bolalarning tor, badanni ta'sirlantiradigan kiyimlarini, xususan, shimlarini kiyish ham qizaloqlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Balog'at yoshidagi qizlarda tananing notekis o'sish jarayoni boshlanadi. Sonning yog' to'plashi, siynalarning kattalashishi, chanoq suyaklari kengayishi, dumba hududining et olishi va sezilarli to'lishishlar shular jumlasidandir. Keskin o'sish jarayoni bilan birgalikda o'spirin qiz ruhiyatida ham o'ziga xos o'zgarishlar ro'y berib, siqiluvchanlik, qimtinish kabi hollarga moyillik kuzatiladi. Ayrim qizlar ko'kraklarining o'zgarishidan andisha qilib, ko'ksilarini ichga tortib yuradilar. Bu esa gavdaning me'yoriy o'sishiga salbiy ta'sir etishi tufayli, nafas olish a'zolari va yurak xastaliklarini vujudga keltirishi mumkin. Ayrim qizlar esa uzoq vaqtgacha ko'kraklarini biror material bilan siqib o'rab yuradilar. Natijada, siynalar yalpayib, xunuklashib ketishi bilan bir qatorda, kelajakda ko'krak bezi kasalliklari vujudga kelishiga ma'lum darajada sabab bo'ladi. Bu yoshdagi qizlar har jihatdan qulay, iqlimga mos, tabiiy, odmi matodan qilingan siynaband taqsalar bas, hushqomat va sog'lom bo'lishlari shak-shubhasizdir.

Balog'at yoshidagi qizlarning og'ir yuk ko'tarishlari qin va bachadonning pastga tushish dardiga olib kelishi bilan xatarlidir. Ko'pgina, onalar ginekolog shifokor maslahatiga faqat qizlari turmushga chiqqandan so'nggina zarurat bor, deya xato o'ylashadi. Natijada, balog'at yoshidagi qizlarning jinsiy a'zo kasalliklari nazardan chetda qolib, o'z vaqtida davolanmasligi bois, har xil xatarli asoratlarga, jumladan bachadon yoki tuxum yo'llarining qayrilib qolishiga olib keladi. Qizlarga beriladigan tarbiyatagi yana bir ahamiyatli jihat ularni hayz jarayonidan ogoh etishdir. Ilk bora hayz ko'rgan ba'zi qizlar tushunmovchilik

bois, bu holatni noto'g'ri qabul qilib, iztirob komiga tushganlari ham talaygina. Qolaversa, har qanday ona ham qizi qachon ilk bora hayz ko'rishini aniq bilolmaydi. Sog'lom qizlarda hayz jarayoni deyarli bilinmay o'tadi. Ammo kamqon, toliquvchan va nimjon qizlarda behollik, qorin pasti va bel hududining sirqirab og'rishi, bosh aylanishi kabi alomatlar paydo bo'ladi.

Shuningdek, bu yoshdagi qizlardagi asabiy, ruhiy o'ziga xosliklar, ta'sirchanlik, hissiyotga beriluvchanlik kabilarni ko'zda tutgan holda, ehtiyyotkorlik bilan muomala qilish zarur bo'ladi. Chunki ayrim yuqumli kasalliklar bilan bir qatorda, asabiylik, jismoniy toliqishlar va g'ambodalik ham hayz maromining buzilishiga sabab bo'lishi aniqlangan.



O'smirlik 9-10 yoshdan 16-17 yoshgacha davom etib, bu davrda balog'at ostonasida turgan yoshlar organizmida murakkab fiziologik va ruhiy o'zgarishlar kechadi. Aynan shu davrda yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish kerak. Yoshlar naslni toza saqlash, kelajak avlodni solg'om dunyoga keltirishlari uchun reproduktiv salomatlik, sog'lom turmush tarzi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Reproduktiv salomatlik va sog'lom turmush tarzi tushunchalari nafaqat jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlikni qamrab olmay balki yoshlar orasida kasalliklarning oldini olish va farzand ko'rishga aloqador muammolarni ijobiy hal qilish demakdir. Hozirgi keskin rivojlanish davrida ommaviy madaniyat ta'siriga tushib qolgan o'smir qizlarimiz kiyinish gigiyenasiga rioya qilishni unutib qo'yishyapti. Kalta va tor kiyimlar kiyish oqibatida endigina rivojlanib kelayotgan qizlar organizmining o'zgarishlarga uchrashi ularning reproduktiv sistemasiga

ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Bu esa kelajakda ayollar organizmida kelib chiqadigan turli xil genital va ekstragenital kasalliklarga olib keluvchi omillardan biridir. Ma'lumki, o'zbek xonadonlarida qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Ularga yoshlikdan organizmni toza tutish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish o'rgatib kelinadi. Yurtimizda shu oilaviy an'analing davomi sifatida ta'llim muassasalarida ham o'qituvchi-murabbiylar, tibbiyot xodimlari tomonidan sog'lom turmush tarzi, reproduktiv salomatlikni targ'ib qilishga qaratilgan turli xildagi tadbirlar, davra suhbatlari muntazam o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday tadbirlar esa o'z navbatida yosh avlodning reproduktiv salomatlik, sog'lom oilani barpo etish, sog'lom farzandlarni dunyoga keltirish to'g'risidagi tushunchalarini boyitib, kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan bir qator muammolarning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda ertangi kunimiz davomchilari bo'lgan yoshlарimiz salomatligi va tarbiyasi haqida qayg'urish kelajakka qo'yilgan mustahkam poydevordir.

### **Topshiriq. Qizlarning reproduktiv salomatligi qanday saqlanadi?**

Topshiriq	To'g'ri javob
<b>Qizlarning reproduktiv salomatligi qanday saqlanadi?</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'z salomatligini saqlash uchun ma'suliyatni shakllantirish.</li> <li>2. Gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish.</li> <li>3. Yomon odatlardan yiroq bo'lish haqida ma'lumotlarni etkashish.</li> <li>4. Psixoemotional yuklarni kamaytirish.</li> <li>5. Bolalat ginekologiga tashrif buyurish bu normal holat ekanligini tushuntirish</li> </ol>

## Nazorat savollari.

### 1. Reproductiv salomatlik bu-?

- A. To'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy muvaffaqiyatlar holati, kasallik va kamchiliklar yo'qligi
- B. Jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatlik va jismoniy kamchilik va kasalliklarning yo'qligi
- C. Jismoniy organizmning to'liq ishlashi va ruhiy barqarorlik
- D. Aqliy va ijtimoiy salomatlikning barqaror holati

### 2. Reproductiv salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar?

- A. Giyohvandlik, ichkilikbozlik, telefon, internetga bog'lanib qolish, gigiyenaga rioya qilmaslik, noto'g'ri ovqatlanish
- B. Jismoniy tarbiya, gigiyenaga rioya qilmaslik, giyohvandlik, noto'g'ri ovqatlanish, uyqu
- C. Internetga bog'lanib qolish, gigiyenaga rioya qilmaslik, yuqumli kasalliklar, uyqu
- D. Yuqumli kasalliklar, telefon, jismoniy tarbiya, gigiyenaga rioya qilmaslik, giyohvandlik

## 4-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARNI TURLI ZARARLI ODATLARDAN SAQLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

### Reja:

1. Odam savdosi nima?
2. Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotlardan himoya qilish to'g'risida qonunining mohiyati.
3. Turli zararli odatlardan xoli bo'lish uchun o'z - o'zini boshqarishning usullari.

**Odam savdosi nima?** BMT Bayonnomasi bo'yicha ifodalanishi. "Odam savdosi" quyidagilarni anglatadi:

- **harakatlar**- odamlarni yollash, olib o'tish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish;

- **vositalar**: boshqa shaxsni nazorat qilayotgan shaxsning roziligini olish uchun kuch ishlatab tahdid solish yoki undan foydalanish yoxud zo'rlik qilish, o'g'irlash, firibgarlik qilish, aldash, o'z mansabini yoki holatning zaifligini suiiste'mol qilish, yoki to'lovlar va manfaatdor etish evaziga og'dirib olish.
- **maqsad** - boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni o'ziga kiritadigan ekspluatatsiya yoki jinsiy ekspluatatsiyaning boshqa shakllari, mehnat yoki xizmat ko'rsatishga majburlash, qullik yoki qullikka o'xshash odatlar, erksizlik holati yoki odam a'zolarini ajratib olish.

### 17-rasm


<b>Odam savdosi</b> →	<b>Yollash</b> →	<b>Tashish, olib o'tish</b> →
<b>Topshirish</b> →	<b>Yashirish</b> →	<b>Vakolatni suiste'mol qili</b> →

### 18-rasm

Odam savdosi barcha davlatlar uchun bir xil xarakterga ega		
↓	↓	↓
Iqtisodiy rivojlanish	Iqtisodiy va suyosiy o'tish davri	Muayyan hududlardagi harbiy nizolar

### 19-rasm

Odam savdosi jinoiy harakatlari zanjiri :



# **BOLALARНИ УЛАРНИН СОГ‘ЛИГ‘ИГА ЗАРАР ЙЕТКАЗУВЧИ AXBOROTDАН HIMОYA QILISH TO‘G‘RISIDA QONUN**

**Qонунчиллик палатаси томонидан 2017-йил 15-августда qабул qилинган**

**3-боб. Bolalarning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash  
hamda axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi**

**16-modda. Bolalarning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotni  
tasniflash.**

- ✓ Bolalarning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborot jumlasiga bolalar o‘rtasida tarqatilishi taqiqlangan axborot mahsuloti, shuningdek muayyan yosh toifalaridagi bolalar o‘rtasida tarqatilishi cheklangan axborot mahsuloti kiradi.
- ✓ Bolalar o‘rtasida tarqatilishi taqiqlangan axborot mahsuloti jumlasiga:
- ✓ bolalarni ularning hayotiga yoki sog‘lig‘iga xavf soladigan xattiharakatlarni sodir etishga, shu jumladan o‘z sog‘lig‘iga zarar yetkazishga, o‘z joniga qasd qilishga va shunday harakatlarni targ‘ib qilishga undaydigan;
- ✓ bolalarda alkogolli va tamaki mahsulotlarini, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni iste’mol qilish, qimor o‘yinlarida, ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etish, fohishalik, darbadarlik, tilanchilik yoki g‘ayriijtimoiy xattiharakatning boshqa shakllari bilan shug‘ullanish istagini paydo qiladigan;



- ✓ odamlarga yoki hayvonlarga nisbatan zo'ravonlik va shafqatsizlik qilish mumkinligini asoslaydigan yoki oqlaydigan yoxud zo'ravonlik xatti-harakatlarini amalga oshirishga undaydigan;
- ✓ oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan, axloqsizlikni targ'ib qiladigan, shuningdek ota-onasiga va oilaning boshqa a'zolariga nisbatan hurmatsiz munosabatni shakllantiradigan;
- ✓ g'ayriqonuniy xulq-atvorni oqlaydigan va huquqbazarlik sodir etishga olib keladigan;
- ✓ jamiyatda buzg'unchilik g'oyalarini targ'ib etishga chaqiradigan;
- ✓ uyatli so'zlarni o'z ichiga olgan;
- ✓ pornografiya xususiyatiga ega bo'lgan axborotni o'z ichiga olgan;
- ✓ g'ayriqonuniy harakatlar natijasida jabrlangan bolalar to'g'risidagi, shu jumladan bunday bolaning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillarining foto va videotasvirlari, bunday bolaning tug'ilgan sanasi, uning ovozi yozilgan audiotasma, yashash joyi yoki vaqtincha turgan joyi, o'qish yoki ish joyi to'g'risidagi, bunday bolaning shaxsini bevosita yoxud bilvosita aniqlashga imkon beradigan boshqa axborotni o'z ichiga olgan axborot mahsuloti kiradi.

Muayyan yosh toifalaridagi bolalar o'ttasida tarqatilishi cheklangan axborot mahsuloti jumlasiga:

shafqatsizlik, jismoniy va (yoki) ruhiy zo'ravonlik, jinoyat yoki jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlar tasviri yoki bayoni tarzida taqdim etiladigan;

bolalarda qo'rquv, vahima yoki sarosima uyg'otadigan, shu jumladan kuch ishlatilmagan o'limni, kasallikni, o'z joniga qasd qilishni, baxtsiz hodisani, avariyanı yoki falokatni va (yoki) ularning oqibatlarini inson qadr-qimmatini kansitadigan shaklda tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etiladigan;

erkak va ayol o'tasidagi jinsiy munosabatlarni tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etiladigan;

uyatli so'zlar jumlasiga kirmaydigan haqoratli so'zlarni o'z ichiga olgan axborot mahsuloti kiradi.

## BIZ GIYOHVANDLIKKA QARSHIMIZ!



- Ta'tib ko'rishni taklif etishganda xushmuomilalik bilan yo'q, deb javob bering. ("yo'q raxmat") yoki mavzuni o'zgartiring ( " a sen eshittingmi...?").
- Yo'q javobini sababini tushuntiring "bu hayot uchun xavfli".
- Qiziqish qo'rsatmang. Sizga narkotik tavsiya qilishdi-e'tibor bermang va o'tib keting.
- Sizga bosim o'tkazishi mumkin joylardan uzoqda yuring.
- Agar tasodifan do'stlar davrasida narkotik qabul qiladigan kimdir kelgan bo'lsa u yerdan tezroq keting.



Mahalla giyohvandlikning oldini olishda birlamchi profilaktik ishlarni olib boradi.

Mavjud ma'lumotlar va to'g'ri yondashuv bilan yoshlarda giyohvandlik to'g'risida o'z fikrlarini shakllantirishlari mumkin. birlamchi profilaktik ishlarni quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- aholining sanitariya-gigiyena ta'limi;
- o'spirinlar, yoshlar o'rtasida olib boriladigan faol tarbiyaviy ishlar;
- ma'muriy va qonunchilik choralar;
- giyohvandlik tarqalishini yo'q qilishga qaratilgan jamoatchilik kurashlarini tashkil etish.

### **Muammoli vaziyat**

**Ko'rsatma:** ishtirokchilarga Tohir Malikning “Alvido bolalik” asaridan parcha tarqatiladi. Ishtirokchilar matnni mustaqil o'rganib, tahlil qiladilar va o'z xulosalarini beradilar.

#### **Tohir Malik. Alvido bolalik asaridan parcha.**

Qamariddin shunday o'ylagani bilan onasining yoniga qaytishga majbur bo'ldi. To'g'rirog'i onasi uni garovga olgani sababli maxsus mактабдан barvaqt chiqarishdi. Hunar bilim yurtiga kirishga majbur qilishdi. Uning bundan bo'lak iloji ham yo'q edi. Qamariddinni oddiy maktablarga qabul qilishmas edi. U yerdagilar bo'sh o'qiydigan, sho'xroq bolalardan qutulish payida yurishadi. Qamariddindaqalarni ko'rishganda dod deganday qilib eshiklarini taqa-taq berkitishadi. Qamariddin avval o'qigan maktabiga ham bordi. Harholda yaxshi o'qirdi, sportda peshqadam edi. Yo'q, bu gaplar unutilganday, qabul qilishmadidi. U hunar bilim yurtiga uch kungina qatnadi. Keyin bormay qo'ydi. Bilim yurtidagilar uning ketib qolganidan quvonishdimi, har qalay nimaga kelmayapsan, deb xabar olishmadidi. Qamariddinday “tarbiyasi og'ir bolaga” ularning ham toqati yo'q edi. Qamariddin faqatgina militsiyagagina kerak ekan. Dam-badam inspeksiyaga chaqirishadi. Ishga joylashishga yordam bermoqchi bo'lishadi. Qamariddin ishlashga rozi, o'qishdan ko'ngli sovib bo'lgan.

Ammo ishga oladigan azamat yo‘q. Hali u, hali bu bahona. Onasi ishda, o‘zi kun bo‘yi ko‘chada. Omadini qarang, u ko‘chadagilarga ham kerak ekan, u kabi bola kam emas ekan. Pes pesni qorong‘ida topganday, ko‘cha bezorilar bir-birlari bilan tez topishar ekan. Shu ahvolda erkin yuraverdi. Ammo to‘daga qo‘silib birovlarni tunamadi. Buni mayda ish deb bildi. Uning hayotdan alami bor, qasos olganda ham birvarakayiga olishni istardi. Shunday qasos oni yaqinlashib kelardi.

Ularnikiga bir odam serqatnov edi. Dastlab ko‘ringanida onasi “dadangning do‘sti, bizdan xabar olib turadi” deb izoh berdi. Qamariddin “dadamning o‘zi qayerda, nima uchun o‘zi xabar olmaydi” deb so‘ramadi. U go‘dak emaski, bu odamning maqsadini bilmasa. Avvaliga Qamariddin qo‘qqisdan kirib qolsa ichib o‘tirganlarini yashirishga harakat qildilar. U go‘l emaski, aroqning hidini bilmasa. Keyinroq borib yashirmay ichaverdilar. Bir kuni Qamariddin kelib u kishining ro‘parasiga o‘tirdi. Ko‘chada bolalar bilan musallas ichgan, shirakayf edi. Piyolada onasiga quyilgan aroq turgan ekan, shartta olib ichib yubordi-da, yana quying, deb “otasining do‘sti”ga uzatdi.

- Yoshlik qilasan, - dedi u odam piyolani chetga olib qo‘yib.

Shu paytgacha Qamariddin u bilan deyarli gaplashmagan edi. Salom berardi-yu, ko‘chaga chiqib ketardi. Bugun kayf ta’sirida qitmirlilik qilgisi keldi.

- Sening bolang bormi? - dedi u dabdurustdan sensirab.

- Bor, - dedi “dadasining do‘sti” g‘azabini ichiga yutib.

- Detdomdami?

- Nimaga detdomda, uyda.

- Tashlab ketmaysanmi?

- Jinni bo‘lganmisan?

- Bolalaringni tashlab, onamga uylan. Meni o‘g‘il qilib ol.

Shu payt oshxonadagi onasi kirib, ularning suhbatidan lol bo‘lib tosh qotdi. “Otasining do‘sti” ham bu taklifdan tamom gangidi.

- Qamarjon, bunaqa masalada hazil qilma.
- Uylansang uylan, bo'limasa o'ldiraman.
- Qamar! - dedi onasi, uni yelkasidan ushlab.

Qamariddin qitmirlik bilan ularni masharalamoqchi edi. Ammo o'zi kutmagan holda nafrati uyg'onib, g'azabi qo'zg'iy boshladi.

- Sen ablahsan, odammassan, - dedi u, onasining silab-siypashiga e'tibor bermay.

U odam o'rnidan turib, eshik tomon yurdi. Qamariddin ham irg'ib o'rnidan turdi-da, yo'lini to'sdi.

- Sen hayvonsan! Sen... san! - deb haqoratlashda davom etdi.

Bu mishqidan shunday so'zlarni eshitishga ori keldi bu odamning: Qamariddinning yuziga shapati qo'yib yubordi. Xuddi o'sha kottedj, o'sha "Volga" egasiday urdi. Unda Qamariddin yig'lab yuborgan edi. Bu safar yig'lamadi, kului. Bu kulgusida zahar zohir edi. Bu kulgusi yomon bir narsaning darakchisi edi. Qamariddin kulib turganicha uning qorniga kalla qilib bukchaytirib qo'ydi. Tepmoqchi edi, o'rtaga onasi tushdi. Qamariddin "ha, mayli" dedi-da, oshxonaga kirib katta pichoqni oldi. Xonaga kirganida onasi stulda, u odam esa yerda onasining tizzasiga bosh qo'yib o'tirgan edi. Onasi pichoq ushlagan Qamariddinni ko'rdi. Baqirib yubordi. Ammo u odam boshini ko'tarishga ulgurmadi. Qamariddin otilib kelib uning bo'yniga pichoq sanchdi. Oshxonada, pichoq olayotgan choqda, onasini ham o'ldirishni fikr qilgan edi. Ammo onasiga qo'l ko'tara olmadi. Nimaga shunday bo'lganini keyinroq ham ko'p o'yladi. Biroq, ming o'ylagani bilan sababini bilolmadi. U bir narsani aniq bilardi: uni o'zi ham sezmagan qandaydir kuch ushlab qolgan edi.

U maxsus mактабда yрганida beimon otasini, bevafo, bemehr onasini o'ldirishni xayol qilardi. Onasini o'ldirolmadi, biroq begonani o'ldirdi. "To'g'ri qildim, - deb o'ylardi u qamoqda yрган kezlarida, - bolalari beimon otadan qutulishdi. Bolalarini aldab yрган odammidi?"

Sud bo'ldi. Sudda yillab o'ylab yurgan gaplarini aytди. Gaplar e'tiborga olinmadi. U o'zini endi bolalar ahloq tuzatish mehnat koloniyasida ko'rdi. Uch yil shu yerda bo'ldi, keyin kattalarning koloniyasiga o'tdi. Qimor ham, aroq ham, nasha ham, bir-birini bo'g'ishlar... hammasi bor edi bu yerda. Yetti yilda o'zi, Asrorga aytganday, "akademik" darajasiga yetdi. Onasi qamoqdan qutulib chiqqan o'g'lini kutib olmadi. Uyga o'zi bostirib bordi. Unga boshpana kerak edi. Uni kutib turgan birodarları bor edi. O'shalar bilan ish boshladi.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Nima uchun jinoyat yo'liga kirdi?
2. Uning hayotida bo'lgan voqealar jinoyat qilish uchun asos bo'ladimi?

 **Topshiriq.** O'smirlar orasida giyohvandlikni oldini olishda mahalla tomonidan tashkil etiladigan chora-tadbirlarni yozing.

<b>Topshiriq</b>	<b>To'ri javob</b>
O'smirlar orasida giyohvandlikni oldini olishda mahallalar qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin.	<p><b>Mahalla giyohvandlikning oldini olishda birlamchi profilaktik ishlarni olib boradi.</b></p> <p><b>Mavjud ma'lumotlar va to'g'ri yondashuv bilan yoshlarda giyohvandlik to'g'risida o'z fikrlarini shakllantirishlari mumkin.</b></p> <p><b>Shu bilan birga, to'rtta yo'nalish ajratilgan:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ aholining sanitariya-gigiyena ta'limi;</li> <li>➤ o'spirinlar, yoshlar o'rtasida olib boriladigan faol tarbiyaviy ishlar;</li> <li>➤ ma'muriy va qonunchilik choralar;</li> <li>➤ giyohvandlik tarqalishini yo'q qilishga qaratilgan jamoatchilik kurashlarini tashkil etish.</li> </ul>

### **Nazorat savollari.**

#### **1. Bolalarining ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotlar jumlasiga nimalar kiradi?**

- A. Xamma narsa bo'lishi mumkin
- B. Uyali aloqa vositalari
- C. Tarqatilishi mumkin bo'limgan va taqiqlangan axborot mahsuloti, havfli guruhlar tominidan beriladigan ma'lumot**
- D Axborot beruvchi barcha ma'lumotlar

#### **2. Giyoxvandlikka ilk bor qadam qo'yish ko'prok necha yoshlar orasida kuzatiladi?**

- A. Giyoxvandlikka ilk bor qadam qo'yish ko'prok 14-15 yoshlar orasida kuzatiladi
- B. Giyoxvandlikka ilk bor qadam qo'yish ko'prok 18-20 yoshlar orasida kuzatiladi
- C. Giyoxvandlikka ilk bor qadam qo'yish ko'prok 11-12 yoshlar orasida kuzatiladi**
- D. Giyoxvandlikka ilk bor qadam qo'yish ko'prok 20-25 yoshlar orasida kuzatiladi

### **5-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYORLASH**

**Reja:**

- 1 Oila qurishing motivlari.
- 2 Oilada ijobiy muhit yaratish usullari.
- 3 Oilada muomila madaniyati shakllantirish.



O'zbekistonda har bir oila, har bir insonning turmush farovonligi, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan, ularni huquqiy muhofaza qilishga qaratilgan jarayon amalga oshirilmoqda. Har bir oila har bir mehnatkash tinch-totuvlik va to'kin-sochin yashasa respublikamiz ozod va boy bo'ladi, gullab yashnaydi. Ota-onalar va bolalar har taraflama jipslashgan oila birligini tashkil etadi. Ular o'rtasida juda yaxshi oilaviy munosabatlar mavjuddir, bu shaxslar oilaning yadrosini ya'ni o'zagini tashkil etadi.

O'zagining ijtimoiy mazmuniga qarab, oila 3 ta guruhdan tashkil topadi:

## 20-rasm



Tipik oilaviy munosbatlardan tashqari bolali yolg'iz ona bilan uning bolasi o'rtasidagi boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlar, ba'zi hollarda farzandlikka olingen, tarbiyaga olingenlar o'rtasidagi munosabatlar ham oilaviy munosabatlarni tashkil etadi.

Hozirgi zamon oilasining asosiy vazifalari.

Har bir oila jamiyatnig bir bo'g'ini sifatida, jamiyat oldidagi ma'lum bir vazifani bajaradi.

Oilanig ijtimoiy vazifalari quydagilardir:

**3-jadval**

<b>No</b>	<b>Oilaning ijtimoiy vazifalari</b>	<b>Mazmuni</b>
1.	<b>Iqtisodiy</b>	uy xo‘jaligini yuritish, oila a’zolarining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini samarali qondirilishini ta’minalash. Farzandni dunyoga keltirish va voyaga yetkazish jarayonida oilaning jamiyatga keltiradigan iqtisodiy foydasi.
2.	<b>Reproduktiv</b>	jamiyatning biologik uzluksizligini ta’minalash, bolalarni dunyoga keltirish
3.	<b>Tarbiyaviy</b>	madaniy merosni avloddan avlodga uzatish, yosh avlodni tarbiyalash jamiyatning madaniy merosini saqlab turish.
4.	<b>Kommunikativ</b>	oila a’zolarining muloqotga va o’zaro tushunishga bo’lgan ehtiyojini qondirish
5.	<b>Reaktiv</b>	o’zaro jismoniy, moddiy, ma’naviy va psixologik yordam ko’rsatish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila-a’zolarining dam olishini tashkil etish vazifasi.
6.	<b>Felitsitologik</b>	shaxsiy baxtga erishishga intilish (felitsito-italyancha baxt). Insonning tom ma’nodagi baxtga erishishida oilaning tutgan o’rni.
7.	<b>Regulyativ</b>	boshqaruv, yosh avlodni ijtimoiy nazorat qilish va kattalarning ma’naviy-ahloqiy, jinsiy hulqini nazorat qilish va boshqarish.

Oiladagi ijobiy muhitni tashkil etish birmuncha murakkabroqdir. Unda kishilar o'z hayotining ko'proq qismini o'tkazadi. Ular bir-birlari bilan ko'proq samimiy tuyg'ular va munosabatlar orqali bog'langandir. Oila baxtining asosida oilaning ijobiy psixologik muhiti yotadi. Oilaning psixologik muhitiga nafaqat er-xotinlarning balki farzandlarning ham oila a'zolariga va bir-birlariga bo'lgan munosabatlari ta'sir qiladi.

Balog'at yoshiga qadam qo'ygan har bir qiz bola shirin orzulari daryosida oila degan kemani boshqarishni niyat qilishi tabiiy hol hisoblanadi. Ana shu kichik, ammo ulkan yukni tortuvchi kemani boshqara olishiga qanchalik tayyorligiga o'zini ishonchi yetadimi yoki yo'qmi eng asosiy masala ana shunda desak xato bo'lmaydi. Oilaga tayyorligiga o'z ishonchni baholashdan qiyin ish bo'lmasa kerak degan savolga ba'zi qizlarimiz "Ovqat tayyorlashni, pishiriqlarni pishirishni, kir yuvish, dazmol qilish, uylarni tozalash, mehmon kutish va qolaversa, uydagilarning qosh-qovog'iga qarashni bilsam bo'ldi, uyog'i bir gap bo'lar", deb o'ylasalar adashadilar. Qiz bola avvalom bor oilaga ruhan tayyor bo'lsa yuqoridagi beka sifatidagi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi qiyin kechmaydi.



Milliy urf-odatlarimizga ko'ra ko'pgina hollarda qizlarni oila qurishiga uni qurshab turgan ijtimoiy muhitning ta'siri katta bo'ladi. Kuyov tomonidan sovchilar kelishadi, qarindoshlar o'rtaga tushishadi, qarabsizki to'y bo'lib ketavermaydi-ku. Milliy qadriyatlarimizga ko'ra qiz bolani roziligi ham so'raladi. Yigit bilan qiz bola to'ydan oldin albatta, uchrashtiriladi. Qiz bola

kuyovlikka da'vogar yigit bilan uchrashganda diqqat-e'tiborini jamlagan holda zimdan kuzatishi lozim bo'ladi.

Kuzatishi jarayonida o'z oldiga quyidagi savollarni qo'yishi kerak: Men shu yigit bilan qolgan hayotimni birga o'tkaza olamanmi? Uning injiqqliklariga chidaymanmi? Bemor bo'lib qolganida dardiga sherik bo'lamanmi? Shu yigitning kiyimlarini yuvamanmi, degan savolarga "ha" deb javob bera olsa yigitga turmushga chiqishga rozilik berishi mumkin.

Turmush qurishga rozilik bergandan so'ng eng murakkab jarayon ya'nı o'zida ruhan oilaviy xayotga ishonchni shakllantirish boshlanadi. Mazkur jarayonni amalga oshirishga vaqt qanchalik kam bo'lismiga qaramay aniq reja asosida ulgursa bo'ladi. Rejaga quyidagi qismlarni kiritish mumkin:

## 21-rasm

**Birinchi qism** – bo'lajak turmush o'rtog'ining xulq-atvorini o'rganish va unga dastlabki moslashuvni boshlash. Yigitga qanday muomala yoqadi? Nima yoqadi va nima yoqmaydi

**Ikkinci qism** — kuyovning oila a'zolarini umumiylashtirish haqida ma'lumotlar toplash va ular bilan qanday munosabatga kirishiga fikran o'zini tayyorlash.

**Uchinchi qism** — yangi oilaga borib moslashish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun o'zi o'sib ulg'aygan oila a'zolaridan asta-sekin uzoqlashish.

**To'rtinchi qism** — ruhiy niqobni tez vaziyatga qarab o'zgartira olishni o'rganish. Ya'nı ichidan zil ketib tursa ham tashqarisi kulib turishni o'rganish. Sal narsaga arazlash, achchiqlanish, jahol qilishdan saqlanish umuman ruhiy holatini istasa-istamasa jilovlay olish sa'atini egallash.

Oila psixologiyasi bilan shug'ulanuvchi mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, oila qurishga o'zida ishonchni shakllantirayotgan qizlar

yuqoridagi rejani o'z sharoitlarini hisobga olgan holda yozma ravishda amalga oshirsalar ijobiy natijaga erishishlari onson kechadi.

Oila qurishga o'zida ishonchni shakllantirishiga eng asosiy turtki rolini o'ynovchi omillardan yana biri bu - o'z-o'ziga yo'rinqoma berish ya'ni "Men albatta, yaxshi beka bo'la olaman", "Men oilani eplab keta olaman", "Men turmush o'rtog'imni baxtli qila olman", "Men baxtli bo'laman" deb kelajakka faqat yaxshi niyatlar bilan qarashi va kelajakka o'zini ishontira olishi uchun yuqoridagi iboralarni tez-tez takrorlab turishi lozim. Sog'lom va farovon turmushni shakllantirishda oila bekasi rolini chuqur anglab yetgan qiz bolagina ruhan oila qurishga tayyor bo'ladi.

### **Sog'lom nikohlar uchun qanday talablar qo'yiladi?**



Oila qurish uchun eng qulay davr qizlar uchun 20-22 yosh, yigitlar uchun 23-25 yosh. Avvalo yigit va qizlarimiz turmush qurishdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tishlari lozim. Ular o'zлari yashaydigan poliklinikalar, tibbiyot markazlaridan maslahat oishlari va bo'lajak zurriyotning salomatligi haqida qayg'urishlari kerak. Bu irsiy kasalliklarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Irsiy kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillarga yaqin qarindosh – urug'lar o'rtasidagi nikohlar kiradi. Bunday oilalarda ko'pincha aqliy va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar tug'ilishi mumkin.

Shuningdek, spirtli ichimliklar iste'mol qiladigan, tamaki chekuvchi va giyohvandlikka ruju qo'ygan oilalarda tug'ma nuqsonli va aqli zaif farzandlar dunyoga kelishi mumkin.

Nikohning o'z ma'suliyati va majburiyatları bor. Bu masalada har birimiz yoshlarga ko'makchi bo'lishmiz kerak. Erta nikoh haqida o'ylashdan oldin bugungi kunning afzalliklarini, va yertaga paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni esda tutgan holda, ish yuritish lozim! Erta nikoh bolalikdan mahrum qiladi.

### **Butun Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra:**

Bugungi kunda qizlar o'tasida 50-60% turli kasalliklar aniqlangan bo'lib, ularning 70% ichki kasalliklar va 30% ginekologik kasalliklarni tashkil etadi.

### **Erta turmush qurishning salbiy oqibatlari:**

Ilmiy xulosalar shuni ko'rsatmoqdaki, yer yuzidagi mamlakatlarda 18 yoshgacha bo'lgan homiladorlik va tug'ruqlar oqibatida har yili ko'plab go'daklar va onalar o'limi xolatlari qayd qilinadi.

### **Mutaxassislarning mulohazasiga ko'ra:**

Nikohga kirish yoshini qizlar uchun 20-22 yosh, yigitlar uchun 24-26 yosh deb belgilash maqsadga muvofiqdir.

**Irsiy kasalliklar kelib chiqishi  
mumkin bo`lgan holatlar:**

- Qarindoshlar o'rtasidagi nikoh
- Ota-onalarning yoshlari kattali
- Og`ir metallar, yuqori toksinga ega bolgan moddalar (dioksinlar, benzopiren)
- Ayrim dori-darmonlar
- Narkotiklar, alkogolizm
- Homiladorlik vaqtida virusli kasalliklar bilan og`rish



### **Islomda nikoh shartlari:**

- Umumiyl qoidadan kelib chiqib islom huquqiga oid manbalarda nikohga kirishning quyidagi shartlari ta'kidlanadi:
  - nikohlanuvchi ayol bilan erkakning o'zaro erkin izhor qilgan roziliklari;
  - nikohning guvohlar ishtirokida tuzilishi;

- tomonlar sog'lom bo'lishi(yaqin qarindoshlik munosabatida bo'Imasligi);
- har ikki tomonning nikoh yoshiga yetgan bo'lishlari;
- erkakning ayolga mahr berishi.

O'zaro erkin izhor qilingan rozilik. "Nikoh bir tomon – erkakning og'zaki taklifi, ikkinchi tomon ayolning bu taklifni qabul qilishi bilan tuziladi"



Islom huquqida oila muqaddas oshyon deb bilinib, nikoh munosabatiga kirishish ibodat sifatida ulug'lanadi. Islom huquqi muqaddas sanalmish oilaga birikishda insonlar albatta jiddiy tayyorlanishlari lozimligini ta'kidlashi barobarida, bo'lg'usi nikohlanuvchilarning ma'naviy va moddiy holatiga qarab oila qurish majburiyati 5 ta kategoriyaga bo'linadi: farz, vojib, sunnat, harom, makruh.

1. Farz. Agar inson oila qurmasa zinoga yo'liqishiga aniq ishonsa, oila qurib, uni boshqara olsa, moddiy sarf-harajatlarini ko'tara olsa, oila a'zolarining haq-huquqlarini ado etishga qodir bo'lsa va zinodan saqlanishning boshqa yo'lini topa olmasa, uning uchun nikohlanish farz, ya'ni shart bo'ladi.

2. Vojib. Agar inson zinoga yo'liqishi mumkinligidan qo'rqsqa, oilani boshqarishga, uning harajatlariga qodir bo'lsa, juftiga zulm qilishdan, uning haqqini poymol qilishdan qo'rwmasa, u uchun nikohlanish vojib, zarur bo'ladi.

3. Sunnat. Agar inson mo'tadil holatda bo'lsa, zinodan va sheringa zulm qilishidan qo'rwmasa, uning uchun nikohlanish sunnat bo'ladi. Bunday insonning nikohlanmasdan yurishi ma'qul ko'rilmaydi.

4. Harom. Agar inson juftiga zulm qilishiga, unga zarar yetkazishiga, oilaning boshqaruvi, sarf-u harajatini ko'tara olmasligiga vaadolat qila olmasligiga ochiq-oydin ko'zi yetib turgan bo'lsa, uning uchun nikohlanish harom, ya'ni bunday shaxs oila quradigan bo'lsa, imkonsizligi sababli nafaqat o'ziga, balki boshqa shaxslarga ham og'irlik keltirib chiqarishi nuqtai nazaridan nikohlanishi mumkin emas. Agar bir kishida nikohning farz va harom bo'lishi qarama-qarshi bo'lib qolsa, harom ustun keladi. Chunki shariat qoidasi bo'yicha, halol bilan harom jamlanib qolsa, harom g'olib keladi.

5. Makruh. Agar inson uylanganda nafaqa berishdan ojiz bo'lishi, muomalani yomon qilishi va sherigiga rag'batি bo'lmasligi kabi omillarga ko'ra o'zidan jabr va zarar sodir bo'lishi mumkinligidan qo'rqlisa, uning uchun nikohlanish makruh, ya'ni nikohlanishi ma'qul ko'rilmaydi.

### Topshiriq. Oilaviy hayotga tayyorgarlik mezonlari.

Topshiriq	To'g'ri javob
<b>Oilaviy hayotga tayyorgarlik mezonlari nimalardan iborat?</b>	Oilaviy hayotga tayyorgarlik mezonlari quyidagilardir: oila va nikohning qadr-qimmatini anglash; mavjud ijtimoiy va me'yoriy tizimga mos keladigan oilaviy hayot to'g'risida o'z g'oyalalariga ega bo'lish; kelajakdagi nikohga nisbatan shaxsning rol pozitsiyasining aniqligi

### Nazorat savollari.

#### 1. Milliy tarbiya nima asosida namoyon bo'ladi ?

- A. Insoniylik
- B. Sog'lom tarbiya, barkamollik

C. Sog'lom e'tiqot

D. Hamma javoblar to'g'ri

## 2.Oila qurish majburiyati islam dinida qaysi kategoriyalarga ajratilgan?

- A. Farz, vojib, sunnat, harom, makruh
- B. Qarz, farz, vojib, sunnat, harom, makruh
- C. Vojib, sunnat, harom
- D. Sunnat, harom, makruh, qarz

☞ Topshiriq. Oilada ijobiy muhitning qoidalari.

Topshiriq	To'g'ri javob
"Oilada ijobiy muhitning qoidalari" nimalardan iborat?	<ul style="list-style-type: none"><li>• Oila a'zolarining bir-biriga hurmat qilishlari va bundan ham ko'proq ularning xarakterlari, sevimli mashg'ulotlari va qiziqishlari o'rtasidagi farqlarni hurmat qilish;</li><li>• tan olish, qo'llab-quvvatlash va jonli aloqa;</li><li>• oila a'zolarning har birini mustaqilligi va bir-biridan mustaqilligi;</li><li>• hazil va samimiylilik hissi;</li><li>• har birining shaxsiy o'sishi, lekin umumiy oilaviy maqsadlar mavjudligi bilan;</li><li>• birgalikda o'yin-kulgi va madaniy an'analarning mavjudligi (ehtimol birlashtirilgan);</li><li>• o'zaro tushunish va yordam;</li><li>• himoyalanganlik va xavfsizlik, kelishuvga kelish istagi bilan nizolar konstruktiv ravishda hal qilinadigan muhit;</li><li>• bolaga qadriyat sifatida munosabat va "koalitsiyalarni" rashksiz o'zgartirish imkoniyati (bola</li></ul>

	turli vaqtarda ota-onalaridan biriga yaqinroq bo'lganda va bu xiyonat sifatida qabul qilinmasa).
--	--------------------------------------------------------------------------------------------------

### Nazorat savollari.

**1. Rasmiy oila nima asosida quriladi ?**

- A. Farzand
- B. Er-xotin
- C. Nikoh
- D. Muhabbat

**2. Hissiy rad etish qanday ifodalanadi ?**

- A. Bolaning ehtiyojlariga e'tibor bermaslik, ota-onalar bolani yoq, deb hisoblaydi va undan umumiy noroziliklarini bildiradilar.
- B. Ota-onalar bola o'z holicha katta bo'lishi mumkin emas, deb hisoblaydilar.
- C. Bolaning barcha ehtiyojlariga ham e'tibor berilmaydi, faqat ota –ona zarur, deb hisoblangan ehtiyojlari qondiriladi.
- D. Bolaning ehtiyojlariga katta e'tibor qaratiladi va ularning barchasi qondiriladi.

### **6-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARDA YAQIN VA UZOQ QARINDOSHLAR HAQIDAGI TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH**


**Reja:**

1. Qarindoshlar bilan rasmiy va norasmiy munosabatlar haqida tasavvurlar.
2. Qarindoshlar, oilaviy huquqiy munosabatlarning obyekti sifatida.
- 3.Uzoq va yaqin qarindoshlar munosabatlarini qonunchilikda aks etishi.

Biror inson kishilar jamiyatidan ayrib, o'zicha yashay olmaydi. Inson zoti borki, boshqa odamlar bilan o'zaro munosabat o'rnatishga, boshqalar bilan ahil, totuv yashashga majbur. Bu esa, kishilik jamiyatining ajralmas qonunidir. Insonni jamiyat bilan uzviy bog'laydigan rishtalar juda ko'p va turlichadir.

Bularning ichida eng muhimi, eng kuchlisi qon va nasab qarindoshligidir. Yaqin qarindosh-urug'lar o'rtasidagi aloqa ham mana shu rishtalardan

hisoblanadi. Inson bu rishtaga suyanadi, undan kuch va quvvat oladi. Hayot muammolarini yechishda unga tayanadi va shu narsa orqali inson hayoti tinch va osoyishta kechadi. O'zbeklar oiladagi tinchlik, xotirjamlik, o'zaro hurmat va qadr-qimmat fonida qarindoshlik tamoyillariga juda katta e'tibor beradilar.



Qarindoshlik - bu umumiy ajdoddan kelib chiqqan yoki nikoh natijasida kelib chiqadigan shaxslar o'tsidagi munosabatlar, ijtimoiy guruhlar va rollarni tashkil etishdir. Qarindoshlik munosabatlaridagi shaxslar qarindoshlar deb ataladi.

Juda ko'p odamlar o'zlarining har bir qarindoshlarini yaqin, deb biladigan va oilaviy shajalarini bilan maqtanishlari mumkin. Boshqalari, aksincha, qarindoshlari bilan munosabatlarni saqlamaydilar, ularni yaqin va qadrdon odamlar deb hisoblamaydilar. Yillar davomida o'zlarining qarindoshlari bilan bo'lgan munosabatlaridan qat'i nazar, ularning ko'plari qonun bilan yaqin deb tan olinadi yoki yo'q. Qonun bo'yicha kim - yaqin qarindoshlar, kim uzoq qarindosh deb hisoblanadi?

Qarindoshlik - bu umumiy ajdoddan kelib chiqqan yoki nikoh natijasida kelib chiqadigan shaxslar o'tsidagi munosabatlar, ijtimoiy guruhlar va rollarni tashkil etish. Qarindoshlik munosabatlaridagi shaxslar qarindoshlar deb ataladi.

### Oila kodeksi

#### **III bo'lim. Qon qarindoshlik va bolalarining nasli nasabini belgilash.**

##### **57-modda. Qarindoshlik**

Bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o'tsidagi to'g'ri shajara bo'yicha

qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanadi.

Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaratagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan - ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan - uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va hokazo.

Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-uka va opa-singillari hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari va shunga o'xshashlar yon shajara bo'yicha qarindoshlar hisoblanadi va hokazo.

To'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlar yon shajara bo'yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinroqdir.

Ikki shaxs o'tasida qarindoshlikning uzoq-yaqinligini aniqlashda, darajalarning soni yoki shu shaxslardan birining o'zini hisobga qo'shmay turib, undan kelib chiqqan avlodlar soni hisobga olinadi.

Hisob ajdodlar tomon to'g'ri shajara bo'yicha ular uchun umumiyl bo'lgan shaxsga (ajdodga) qarab va undan esa, avlodlar tomon - ulardan boshqasiga qarab olib boriladi.

Tug'ishgan aka - uka va opa - singil qarindoshlikning ikkinchi darajasida tog'a va amaki, amma va xola o'z jiyanolari bilan qarindoshlikning - uchinchi, tog'avachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachchalar esa - to'rtinchi darajasida turadilar.

### **58-modda. Yot aralashmagan va yot aralashgan qarindoshlik**

Aka-uka va opa-singillar yot aralashmagan va yot aralashgan qarindosh bo'lishi mumkin. Aka-uka va opa-singillar bir ota-onadan kelib chiqqan bo'lsa, yot aralashmagan, ota bir ona boshqa yoki aksincha ona bir ota boshqa bo'lsa, yot aralashgan qarindosh hisoblanadi. Yot aralashmagan qarindoshlikda aka-uka va opa-singillar tug'ishgan, yot aralashgan qarindoshlikda esa, aka-uka va opa-singillar o'gay hisoblanadi.

Er-xotinning ilgarigi nikohlaridan bo'lgan bolalari o'zaro qarindosh hisoblanmaydi.

## **59-modda. Qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik**

Er(xotin) va uning yaqin qarindoshlari bilan xotin(er) qarindoshlarining bir-biriga nisbatan munosabatlari (qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik) o'zaro huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

### **Yaqin qarindoshlar**



Yaqin qarindoshlar vertikal va gorizontal chiziqlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri qon ajdodlari va avlodlaridir.

Vertikal chiziqda bolalar va ota-onalar, buvilar va nabiralar yaqin qarindoshlar sifatida tan olinadi. Gorizontal chiziqda aka-uka va opa-singillar, shu jumladan to'liq bo'limgan, faqat bitta umumiyl ota-onaga ega bo'lganlar tan olinadi.

! Er va xotin yaqin qarindoshlar sifatida tan olinmaydi. Biroq, qonuniy manfaatlarni tartibga solishning aniq masalalarida ular ba'zi huquqlarga ega. Bu, masalan, ajralish jarayonida ular o'rtasida bo'linadigan, nikohda olingan umumiyl mulkka tegishli.

**Topshiriq. Qaysi vaziyatlarda qonun bo'yicha nikohga ruhsat berilmaydi?**

Topshiriq	To'ri javob
Qaysi vaziyatlarda	O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining I bo'lim 16-moddasiga ko'ra, nikoh tuzishga:

<p>qonun bo'yicha nikohga ruhsat berilmaydi?</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• loaqlal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida;</li> <li>• nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarin-doshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;</li> <li>• loaqlal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yo'l qo'yilmaydi.</li> </ul>
--------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

### **Nazorat savollari.**

**1. Oila kodeksining nechanchi bo'limi qon-qarindoshlik masalariga oid etib belgilangan ?**

- A. I bo'limi
- B. II bo'limi
- C. III bo'limi
- D. IV bo'limi

**2.Er (xotin) va uning yaqin qarindoshlari bilan xotin (er) qarindoshlarining bir-biriga nisbatan munosabatlari (qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik) o'zaro huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradimi?**

- A. Ha
- B. Yoq
- C. Bilmayman
- D. Odamlarning hohishiga qarab

## **7-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARDA GENDER TENGLIK HAQIDAGI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH**

**Reja:**

1. Oilada farzand tarbiyasi.
2. Gender tenglik haqida tasavvurlar.
3. Ijtimoiy faollik va uning turlari.
4. Huquq va majburiyatlarni anglash.

Har bir ota-onada farzand tarbiyasida o'zlarining burch va ma'suliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Shunday ekan, oilada ruhiy xotirjamlik, samimiymunosabat, ota-onada obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, o'gil yoki qiz deb ajratmaslik, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash ota-onalarning psixologik va pedagogik bilimlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bolalik energiyasini va uning asab tizimini mustahkamlash uchun juda erta yoshda ikkita shart zarur: tinch quvnoqlik va o'ziga ishonch. Ushbu shartlar bevosita atrof-muhit va ijtimoiy muhit ta'sirining xususiyatiga bog'liq.

- Oilada bolaga hurmat, ota-onaning iliqligi va xayrixohligi ularda samimiylig, mehr va minnatdorlikni tarbiyalaydi.

- Bolani hurmat qilish uning qobiliyatlariga bo'lgan ishonchida, Kattalarga nisbatan mustaqilligida, mustaqil hayotga bo'lgan huquqida (masalan, do'stlari bilan turli o'yinlarda), uning insoniy qadr-qimmatini tan olishida namoyon bo'ladi.

- farzandingizning tarbiyasi sizning uyingiz bo'ladi,bu - kamtarona jihozlangan bo'lsa ham, toza va bola sut ichadigan chashka, uning bobosi va buvisiga - ota-onangizga bo'lgan xayrixoh munosabatingizdir. Ammo har qanday ta'lif-tarbiya tizimining asosi sevgi bo'lishi kerak.

- Aynan oilada ijtimoiy xatti-harakatlarning fazilatlari, hissiyotlari, odatlari va ko'nikmalari shakllana boshlaydi, bu unga qanday qilib odamning katta bo'lishiga bog'liq, u qo'rqoq, irodasiz, g'azablangan yoki ma'naviy jihatdan boy, jismonan chiroyli, yuksak axloqli va mehribon bo'lishi mumkin.

### **Bolaga kattalar tomonidan qo'yiladigan talablar:**

- kattalarning talablari mos, bolaga tushunarli va doimiy bo'lishi kerak. Doimiy tushuntirishlar bilan bezovtalanish tavsiya etilmaydi, nima uchun u yoki bu qoidaga amal qilish kerakligini eslatib turish, bolani to'g'ri harakatlariga riosa qilish va mustahkamlash yaxshiroqdir.

- Bolaning xohish-istikclarini inobatga olgan holda, shunga qaramay, uni oilada o'rnatilgan qoidalarga asta-sekin ko'niktirish kerak. U hayotining birinchi yillaridanoq "men xohlayman" so'zidan tashqari "kerak", "kerak emas", "mumkin" so'zlari borligini o'rganishi kerak. Tizimli ravishda boshqariladigan, barcha oila a'zolari tomonidan bir ovozdan bolaga taklif qilingan bunday qoidalalar o'zini tutish madaniyatini odatlarini rivojlantiradi. Bunga bamaylixotir, mehr bilan, shu bilan birga qat'iyatli va ishonchli tarzda ko'nikish kerak.

- Xulq-atvor qoidalariга riosa qilganlik uchun tez-tez beriladigan mukofotlarni suiste'mol qilmang, bu ota-onalarning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ota-onalarning ijobjiy namunasi bu - bolada ijobjiy fazilatlarni tarbiyalashning eng yaxshi usulidir.

- Shuni yodda tutingki, aynan oila davrasida bolaning axloqiy fazilatlari yotadi va rivojlna boshlaydi. Odamlarga bo'lgan muhabbat, do'stlik tuyg'usi, kattalarga g'amxo'rlik va hurmat, zaif va kichiklarga yordam berish istagi, mehribonlik, halollik - bularning barchasi oilada tug'iladi.



## O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi.

### 10-modda. Oilaviy huquqlarni amalga oshirish va oilaviy majburiyatlarni bajarish.

Fuqarolar oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlarini o‘z xohishlariga ko‘ra tasarruf etadilar.

Oila a’zolarining o‘z huquqlarini amalga oshirishlari hamda o‘z majburiyatlarini bajarishlari oilaning boshqa a’zolari va o‘zga shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shart.

Gender tushunchasida asosiy tayanch nuqta bo‘lib, ikki tushuncha ya`ni, “jins” va “gender” tushunchalari o‘rtasidagi farq tushuniladi. Ayrim hollarda ushbu toifalar(jins – erkak, ayol; va gender – maskulin, femin) bir xil mazmundagi tushunchalar sifatida aks ettiriladi.

Dunyo miyosida ayollar erkaklarnikiga qaraganda iqtisodiy faollik uchun kamroq imkoniyatlarga ega, boshlang‘ich va oliy ma'lumot olish imkoniyati ayollarda kamroq, sog'liq va xavfsizlik nuqtai nazaridan xam shunday deyish mumkin.

Ayollarning huquqlarini kafolatlash va ularga o‘z salohiyatlarini to‘la namoyon etish imkoniyatlarini berish nafaqat gender tenglikka erishish uchun, balki rivojlanishning keng bosqichlariga erishish uchun ham muhimdir.

#### Gender nima?



Gender bu – xotin - qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihatidir.

#### Gender nimani anglatadi?

Gender deganda “ijtimoiy jins” nazarda tutiladi. Bu degani erkak va ayol fiziologik yoki psixologik bir hil emas, balki ijtimoiy va siyosiy hayotda bir xil huquqga ega.

### **Islomda gender tengligi bormi?**

#### **Qur'on oyati**

Ey odamlar! Sizlarni bir jondan yaratgan va undan uning juftini yaratib, ikkovlaridan ko'plab erkagu ayollar taqatgan Robbingizdan qo'rqinglar! Nominishlatib bir-biringizdan so'rovda bo'ladiganingiz Allohdan va qarindoshlik (aloqalari)dan qo'rqing. Albatta, Alloh ustingizdan raqobat etuvchi zotdir. (Niso surasi -1 oyat).

#### **Hadis**

Hanafiy faqihlardan Kamoliddin ibn al-Humam: “Agar ayolning xotinlarga xos farzi kifoya ishda hunari bo'lsa, uning eri (ishga) chiqishidan man qila olmaydi”, deganlar.

### **O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni.**

**21-modda.** Mehnat munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari.

- Ish beruvchi mehnat munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish maqsadida quyidagilarni ta'minlaydi:
- ishga yollashda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni;
- teng mehnat uchun xotin-qizlar va erkaklarga teng ish haqini (mukofotni) hamda xotin-qizlar va erkaklar ishining sifatini baholashga doir teng yondashuvni;

**26-modda.** Ta'lim, ilm-fan hamda madaniyat sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari.

- Davlat ta'lif olish huquqini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi.

Davlat quyidagilarni kafolatlaydi:

- xotin-qizlar va erkaklarning ta'lif olish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning barcha turlaridan foydalanishga, ta'lif va ilmiy jarayonni amalga oshirishda ishtirok etishga hamda madaniyatdan, madaniy qadriyatlar va merosdan foydalanishga doir teng huquq va imkoniyatlarini;
- turli ta'lif dasturlariga gender mavzusini joriy etish orqali fuqarolarning genderga oid ma'rifatini oshirishga ko'maklashishni;
- jinslardan birining ustunligi g'oyasiga asoslangan noto'g'ri tasavvurlardan xoli o'quv adabiyotlarini tayyorlash va chop etishni;

### **O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni.**




**Zo'ravonlik** – xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat.

- **Iqtisodiy zo'ravonlik** - xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ishda va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo'ravonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (yoki harakatsizlik);

- **Jinsiy zo'ravonlik** - xotin-qizlarga nisbatan ularning rozilgisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo'ravonlik shakli, shuningdek, zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash;
- **Ruhiy zo'ravonlik** - xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek, ularning hoxish-irodasini cheklashga urinishlar.

**22-rasm**



## Himoya orderi va uning berilish tartibi

O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonunining 23-moddasida tegishli hududda tazyiq va zo'ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan ichki ishlar organining mansabдор shaxsi tazyiq va zo'ravonlik fakti yoki ularni sodir etish xavfi aniqlangan paytdan e'tiboran 24 soat ichida himoya orderini o'ttiz kun muddatgacha berishi belgilangan.

Gender tenglikka erishish yo'llaridan biri bu - xotin-qizlarning ijtimoiy faol bo'lishlaridir. Ijtimoiy faollik bu bir turidagi odamning ijtimoiy faoliyati boshqa faoliyat turlarini o'zlashtirish uchun o'zining ichki tuzilishini tiklashdir. Shaxs o'z kuchlarini qo'llashning tobora ko'proq sohalari va shakllarini topib, ijtimoiy faoliyat o'lchoviga ehtiyoj ko'proq zarur bo'lgan sohalarni kuchaytirish uchun faoliyatning individual aloqalarini to'sib qo'yadi. Shaxsning ijtimoiy faolligi va uning o'zgarishiga ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi. Ichki omillarga shaxsning tabiiy va genetik xususiyatlari, uning xarakteri, ijtimoiylashuv darajasi, madaniyati, ongi, ehtiyojlari va boshqalar kiradi. Bularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Tashqi omillarga inson faoliyat ko'rsatadigan atrofdagi ijtimoiy va tabiiy muhit omillari kiradi.



Insonning ijtimoiy faolligini ikki qarama-qarshi yo'nalishda ko'rsatish mumkin:

- ijobiy - shaxsning o'zgaruvchan sharoitlarga, boshqa odamlarga va o'ziga turli xil faoliyatlari orqali jamiyat foydasiga yo'nalishi;
- salbiy - shaxsning jamiyatdan uzoqlashishi, turli xil harakatlar orqali jamiyatga ta'sir ko'rsatishning asotsial shakllarini amalga oshirish.

## **Shunga ko'ra, insonning ijtimoiy faoliyatini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:**

- a) mehnat - shaxsning o'z mehnat majburiyatlariga munosabatida namoyon bo'ladi; iqtisodiy faoliyatni boshqarish va boshqarishdagi faoliyat;
- b) ijtimoiy-siyosiy - siyosiy munosabatlar tizimida shaxs aqliy yoki jismoniy mehnat, shahar yoki qishloq ishchisi sifatida emas, balki o'zining siyosiy layoqati bilan ishlaydi;
- c) ma'naviy hayot sohasida - shaxsni ijodiy faoliyatga qo'shilishi - uning dinamik va maqsadga muvofiq ijobiy o'zgarishi uchun muhim shart;

Ijtimoiy faollikning mohiyatini atrofimizdagi dunyoga ijodiy munosabat nuqtai nazaridan ko'rib chiqish zarur. Ijtimoiy faollik hayotga ongli, ijodiy munosabat, shaxsning o'zini o'zi chuqur va to'liq anglashi deb ta'riflashimiz mumkin.

Ijtimoiy faollikning namoyon bo'lish darajasini: inert, reproduktiv, samarali darajalarga ajratiladi.

**Birinchi daraja inert (past).** Ushbu darajadagi shaxslar pragmatik maqsadlarga erishishdan manfaatdor, hodisalarни va odamlarni baholash mezonlari shaxsiy daromad olish imkoniyatidir. Ular ishni mustaqil ravishda rejalahtirish, tashkil etish va amalga oshirishni bilmaydigan odamlarning fikrlarini tinglashadi, jamoaning yoki guruhning ishlariga befarq bo'limgan tashabbusning yetishmasligi, xudbinlikka moyilligi va atrofdagi haqiqatga befarqlik bilan tavsiflanadi. Ular ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarda o'zlarining ishtirokini shaxsiy va kasbiy rivojlanish bilan bog'lamaydilar.

**Ikkinchi daraja reproduktiv (o'rta).** Ushbu darajaga tor burchli majburiyat va javobgarlik motivlarining ustunligi bilan ajralib turadigan shaxslar kiradi. Ular faoliyatda mustaqillik past, intizomli, ijro etuvchi, ammo tashabbuskor emas. Ular hayotga, masalan, ta'lim muassasasi hayotiga qo'shilish usuli sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega tadbirlarda o'zlarining ishtirok etishlarini biladilar.

**Uchinchi daraja (yuqori) samarali.** Ushbu darajadagi shaxslar o'z taqdirini o'zi belgilash va takomillashtirish motivlari mavjudligi, to'siqlarni yengib o'tish istagi bilan ajralib turadi. Ular faoliyatida ijodkorlik va tashabbuskorlikni namoyon etishadi, bu boshqa odamlar uchun foydali ish qilish istagi, o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llashning turli usullarini o'zlashtirish istagi bilan bog'liq, ish jarayonida mustaqil qaror qabul qilishga qodir, o'z-o'zini tanqid qiladigan, o'ziga va boshqalarga talabchan. Ular ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarda ishtirok etish xususiyatlarini shaxsiy va kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq deb hisoblaydilar.

Shunday qilib, ijtimoiy faollik shaxsning ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishga va atrofdagi ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirishga qaratilgan ongli faoliyatidir.

### **Topshiriq. Oilada tenglik va hamkorlik “g'ildiragi”.**

<b>Topshiriq</b>	<b>To'g'ri javob</b>
Oilada tenglik va hamkorlik “g'ildiragi”ni yarating.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Fikrlar almashinushi vaadolat. Nizoning barchaga ma'qul bo'lgan yechimlarini izlash imkonи. O'zgarishlarga rozi-rizolik. Bir-biriga yon berish, kelishish, murosa.</li> <li>2. Ijobiy munosabat. Oila a'zolariga ishonch xissini beruvchi, oila a'zolarining o'z fikrlarini bildirib mustaqil qaror qabul qilishga imkoniyat beruvchi xatti-harakatlar va muloqot uslubi.</li> <li>3. Hurmat. Tanqidsiz bir-birini tinglay bilish. Xissiyotlarni boshqara olish. Bir-birini tushunishga harakat qilish. Bir-birini fikrini qadrlash.</li> <li>4. Ishonch va qo'llab-quvvatlash. Bir-birining maqsadlari amalga oshishi uchun qo'llab-quvvatlash. Ayolining do'stu-qarindoshlariga hurmat. Shaxsiy fikriga, mehnatiga hurmat.</li> <li>5. Shaxsiy mas'uliyat. O'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat. Ochiq va samimiy muloqot.</li> <li>6. Ota-onalik mas'uliyati. Ota-onaning teng mas'uliyati. Farzandlariga o'zaro hurmat va mehr-oqibatga asoslangan munosabatlarni namoyish qilish, o'rnak bo'lish.</li> </ol>

	<p>7.O'zaro mas'uliyat.Uydagilarni o'zaro kelishib taqsimlash. Oilaviy masalalarga tegishli masalalar bo'yicha birgalikda qaror qabul qilish.</p> <p>8.Xo'jalik yuritishda hamkorlik.Sarf-harajatlar bo'yicha birga qaror qabul qilish. Moliyaviy masalalarda o'zaro foyda va manfaatdorlik xisobga olish.</p>
--	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

### Nazorat savollari.

#### 1. Gender tenglik deganda nimani tushunasiz ?

- A. Er-xotinlik vazifalarini bajarish
- B. Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi va imkonoyatlari C.
- Ayollarning barcha huquqlari
- D. Erkakning barcha huquqlari

#### 2. Himoya orderi nima?

- A. Tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxsga nisbatan ma'muriy jazo
- B. Tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxsga nisbatan jinoiy jazo
- C.Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi hujjat
- D. Tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxsga nisbatan jamoatchilik tomonidan beriladigan jazo

### 8-MAVZU. MAKTAB YOSIDAGI QIZLARNI ZO'RAVONLIK VA TAZYIQDAN ASRASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

#### Reja:


1. Maktabda zo'ravonlik sabablari.
2. Maktab yoshidagi qizlarni zo'ravonlik va tazyiqdan asrash usullari.
3. Maktabda zo'ravonlikni oldini olish.

Maktabda zo'ravonlik – bu ta'lim tizimida o'quvchilar orasida, o'qituvchi va o'quvchi va juda kam vaziyatlarda o'quvchilar o'qituvchiga nisbatan zo'ravonlik ko'rsatilishidir. Boshqa insonning huquqlari buzilgan har qanday holat zo'ravonlik deb tan olinadi.

Maktabda bulling – uzoq muddatli anglangan shafqatsiz munosabat, bir yoki bir guruh bolalarga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik o'tkazishdir.



23-rasm



Maktab sharoitida quyidagilar ruhiy zo'ravonlikning ko'rinishlari hisoblanadi:

- o'quvchiga nisbatan tahdid;
- o'quvchi ataylab yakkalash;
- yoshiga mos bo'limgan talablar qo'yish;
- haqoratlash va kamsitish;
- doimiy ravishda bolani tanqid qilish;

- o'quvchiga doimiy ravishda salbiy tavsifnoma berish;
- o'quvchiga nisbatan namoyishkorona salbiy munosabatda bo'lish.

### **Maktabda zo'ravonlikni yuzaga keltiruvchi omillar**

- maktabdagi anonimlik, ta'lif muassasalarida katta tanloving yo'qligi;
- o'qituvchilar jamoasidagi salbiy muhit;
- o'qituvchilarning befarqligi va salbiy holatlarga ko'z yumishlari;
- o'quvchilar jamoasidagi salbiy muhit

### **Maktabda zo'ravonlikni yuzaga kelishida oilaning ta'siri**

#### **Noto'liq oila.**

- ota-onalarning hayotga nisbatan salbiy munosabati.
- avtoritar va hukmron oila.
- konfliktli oilalar.
- zo'ravonlikka moyilligi bor oilalar



#### **Birlamchi profilaktika:**

1. Otalik va onalik xatti-harakatlarini va oila tiplari va tarbiya usullarini o'rganish.
2. Bolaning emotsiunal farovonligini pastga tushuruvchi va bolaning ruhiy rivojlanishini orqaga tortivchi sabablar sifatida ona va bola munosabatlarini o'rganish va korreksiya qilish.
3. Sog'lom turmush tarzi, yuqori funksional xatti - harakatlar strategiyasi va shaxsiy resurslarni shakllantirish.
4. Samarali stregiyalar va xulq-atvorning ijobiylar ko'nikmalarini shakllantirish.

#### **Ikkilamchi profilaktika:**

1. Bola xulq-atvoridagi o'zgarishlarni tuzatish uchun vaqtli aralashish;
2. Oilaning genogrammasini tadqiq qilish;

- Oilaviy munosabatlar, jismoniy va emotsiyal aloqalarni tuzatish, otaona va bola munosabatlardagi chegaralarni aniqlash;
- Oila a'zolarining aniq rollarini aniqlash.

### **O'quvchilar jamoasida zo'ravonlikni yuzaga keltiruvchi omillar**

- O'quvchilarning individual xususiyatlariga bog'liq bo'lgan tajovuzkorlik;
  - o'quvchining oldingi hayotiy faoliyatiga bog'liq tajovuzkorlik va yon atrofida sodir bo'layotgan zo'ravonlik;
  - kommunikativ ko'nikmalarni jumladan, zo'ravonlik ko'rsatmasdan o'zaro munosabat yo'lga qo'yish ko'nikmalarining yetishmasligi;
  - zo'ravonlikni yuzaga keltiruvchi maktab muhitidagi an'analar. Ularga quyidagilar kiradi;
- maktadagi umumiyl psixoemotsional fon;
  - maktab rahbariyati tomonidan yuritiladigan "siyosat";
  - o'zaro munosabatlar tizimi;
  - sinf jamoasi ichidagi muhit;
  - umumiyl tan olingen ijtimoiy roller - "xo'jayin" va "qurban";
  - OAV tomonidan targ'ib qilinayotgan an'analar.

## **24-rasm**

### Tajovuzkorlikni amalga oshirish shakllari

(A. G. Ammon usuli)

Konstruktiv  
shakl

Destruktiv  
shakl

Defitsitar  
shakl

Tajovuzkorlikni qabul  
qilingan shakllari  
individning unga salbiy  
ta'sir etuvchi  
holatlarga  
nisbatan qarshi tura  
olishi.

Axloqiy etik me'yorlarni  
buzilishi,  
Tajovuzkorlikni namoyon  
etish munosabatlarni buzish  
Xulq-atvorning delinkvent  
kriminal  
komponentlari va haxsdagি  
buzilishlar

Ijtimoiy faollikning  
quyi darajasi,  
tajovuzkor  
xatti xarakatni  
boshqarish  
ko'nikmalariga  
ega bo'lmaslik

**Topshiriq. Maktab yoshidagi qizlar orasida zo'ravonlikni oldini olish usullari.**

Topshiriq.	To'g'ri javob
Maktab yoshidagi qizlar orasida zo'ravonlikni oldini olishning birlamchi usullarini ko'rsating?	<ol style="list-style-type: none"><li>Otalik va onalik xatti - harakatlarini va oila tiplari hamda tarbiya usullarini o'rganish.</li><li>Bolaning emotsional farovonligini pastga tushuruvchi va bolaning ruhiy rivojlanishini orqaga tortuvchi sabablar sifatida ona va bola munosabatlarini o'rganish va korreksiya qilish.</li><li>Sog'lom turmush tarzi, yuqori funksional xatti - harakatlar strategiyasi va shaxsiy resurslarni shakllantirish.</li><li>Samarali stregiyalar va xulq-atvorning ijobiylarini shakllantirish.</li></ol>

**Nazorat savollari.**

**1. Maktabda bulling bu:**

- A. Uzoq muddatli anglangan shafqatsiz munosabat, bir yoki bir guruh bolalarga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik o'tkazish
- B. Bir guruh maktab o'quvchilarning bir - biriga nisbatan tazyiq o'tkazishi
- C. Bir o'quvchining boshqasiga nisabatan vaqtiga-vaqtiga bilan jismoniy zo'ravonlik o'tkazishi
- D. Bir maktab o'quvchilarining boshqa maktab o'quvchilariga nisabatan ruhiy zo'ravonlik o'tkazishi

**2. Ruhiy zo'ravonlik bu:**

- A. Laqab qo'yish, masxaralash, kamsitish, xo'rslash, obro'sizlantirish, yakkalash, ataylab subyektiv baholash, tuxmat qilish, muloqotdan voz kechish, xaqorat qilish
- B. Kamsitish, xo'rslash, obro'sizlantirish, yakkalash, urish, kaltaklash, narsalarini tortib olish
- C. Yakkalash, haqorat qilish, mushtlashish, narsalarini olib qo'yish, pulini tortib olish, tuhmat qilish
- D. Narsalarini olib qo'yish, pulini tortib olish, tuhmat qilish, masxaralash, ataylab jahlini chiqarishga harakat qilish.

## **9-MAVZU: MAKTAB YOSHIDAGI QIZLARDA SOG'LOM E'TIQODNI SHAKLLANTIRISH**

**Reja:**

1. Milliy va diniy tarbiya asoslari.
2. "E'tiqod" va "Sog'lom e'tiqod" tushunchalarini mazmun mohiyati.
3. Hayot davomida milliy va diniy qadriyatlarni o'zlashtirish va amal qilish qoidalarini bilish.

### ***Tarbiya keng ma'noda jamiyatning shaxsga ta'siridir!***

Bolaning asl tabiati – bu nozik, mehr-oqibat, yumshoqlik, samimiylilikdir. Biroq, go'daklarda mavjud bo'lgan ushbu yaxshi fazilatlar beqaror bo'lib, ularni qo'llab-quvvatlash va kuchaytirishga muhtojdir. Ota-onalar farzandidagi ushbu tug'ma mehrni saqlash va rivojlantirish uchun harakat qilishlari, bolaga fe'l-atvorining salbiy ko'rinishlariga qarshi kurashish vositalarini topishi va "vijdon" deb nomlangan zarur sifatni shakllantirishlari kerak. Ushbu yo'lda bolaning oilasida qabul qilingan tan olish donoligi asosida olib boriladigan milliy va diniy ta'lim yordam berishi mumkin. Bu chaqaloqning ma'naviy hayotini to'g'ri shakllantirish uchun kalit bo'ladi.

Nimadan boshlash kerak? Milliy qadriyatlar va dinga asoslangan holda ta'limni qanday boshlash kerak?

Milliy qadriyat va diniy ta'lim madaniyat tarzida bolada bo'lgan barcha yaxshi fazilatlarini shakllantirishning kalitidir: mehr-oqibat, rahm-shafqat, hamdardlik, tavba, o'zaro yordam, achinish, uyalish, yaxshiroq bo'lishga intilish va boshqalar.


3-4 yoshli chaqaloq allaqachon yaxshilik va yomon tushunchalariga ega ekanligini unutmang. Siz ularni faqat bola uchun qulay, maqbul shaklda taqdim etishingiz kerak.

Diniy ta'limni bolaga boshqa yo'l bilan tushuntirib bo'lmaydigan ba'zi bir fundamental masalalarni hal qilish vositasi sifatida tushuntiring: "yaxshilik" va "yovuzlik" toifalari, dunyo yaratilishi, hayot mazmuni va boshqalar.

**Diniy e'tiqod bu** — inson irodasidan yuqori turgan zotga iymon keltirish, undan madad olish, asotiriylar voqeasi – hodisalarining takror sodir bo'lishi va unga daxldorlik hamda muayyan tasavvur, aqida muqaddas kitob, payg'ambar, avliyo va xokazolarga ishonch demakdir.



**Sog'lom e'tiqod** shaxs dunyoqarashi tizimidagi, **birinchidan** shaxs dunyoqarashidagi barkarorlikni belgilovchi xalqa sifatida chiqishida, **ikkinchidan**, mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklardan cho'chimaslikka, ularga qarshi kurasha olish va bartaraf etishning oqilona yo'llarini izlashga, **uchinchidan**, xulqidagi sobitlik, izchillik va amaliyotdagi faoliytni ta'minlashga xizmat qilishida ko'rindi.



Farzandlarga chiroyli odob-axloq va ilmni o'rgatish nafl ibodatdan ko'ra afzal va savobliroqdir. Yaxshi farzandning sadaqai joriyasi, savobli ishlari otonasining qabrini pur nur, ruhi poklarini shod va masrur qiladi.

Quyidagilar yaxshi xulq-odob belgilari hisoblanadi:

<b>№</b>	<b>Yaxshi xulq-odob belgilari:</b>
1.	xayrli ishlarda odamlar bilan ziddiyatga bormaslik;
2.	his-tuyg'u va ehtiroslarga berilmaslik;
3.	o'zgalarning kamchiliklarini qidirmaslik;
4.	birovlarning baxtsizligiga hamdard bo'lib, uni to'g'ri tushunish;
5.	agar aybdor o'z aybiga iqror bo'lsa, uni avf etish;
6.	muhtojlarga yordam ko'rsatish;
7.	kishilar to'g'risida g'amxo'rlik qilish;
8.	o'z nuqsonlarini ko'ra bilish;
9.	odob-axloqli bo'lish;
10.	xushmuomala bo'lish;

Sarvari olam shunday marhamat qilganlar: "Bamisoli sirka asalni buzganidek, badfe'llik va axloqsizlik ham kishining qilayotgan amallarini buzadi", (Imom Hokim rivoyati).

O'zbek millatining ham bola tarbiyasiga oid muhim qarashlari mavjud. Bola tarbiyasida oila muhitining o'rni ahamiyatli ekanligi inobatga olingan holda bolaning kamol tarbiya topishi ushbu maskandan boshlanadi. Oilada farzand tarbiyasi ota – onaning qattiqqa'lligi, onaning mehribonligi hal qiluvchi omillardandir. Oiladagi umumiy sog'lom iqlim mehr – muhabbat, oqibat, o'zaro hurmat, tinch – totuvlik, ota – onaning bilim saviyasi, iyomon – e'tiqodliligi, moddiy va ma'naviy boylikka munosabati va shu kabi ko'plab narsalarga bog'liq. Bejizga ota – bobolarimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb aytishmagan.

Xalqimizda farzand tarbiyasiga nafaqat ota – onalar, balki mahalla – ko‘y, qo‘ni – qo‘snilari ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. “Bir bolaga yetti mahalla ota – ona” degan naqlga binoan farzandlarning yurish – turishi, hayot tarzi qo‘snilari, yaqinlari nazoratida bo‘ladi. Farzandlarning yetuk shaxs bo‘lib ulg‘ayishlari doimo eng muhim umumbashariy muammo bo‘lib kelgan. Xususan, Sharq mintaqasida o‘g‘il bolalar ilm olish bilan bir qatorda hunar o‘rganish, xo‘jalik ishlari, ot minish, kamonbozlik kabilar bilan mashg‘ul qilingan bo‘lsa, qiz farzandlar katta hayot ostonasiga tayyorlangan. Tikish – bichish, pazandalik, uy – ro‘zg‘or yuritish singari hunar turlari momolarimiz tarafidan avlodlarga yetkazilgan.

Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, uni ma’rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e’tibor berilgan. Ularning yoshlarni halol mehnat bilan hayot kechirishga undaydigan, xolis va ezgu ishlar bilan el – yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, to‘g‘ri xulosa chiqaradigan insonlar bo‘lishiga undovchi hayotiy qarashlari, hikmatlarning ahamiyati beqiyosdir. Husayn Voiz Koshifiy “Ahloqi muhsinin” asarida ham farzand tarbiyasida muhim bo‘lgan an’anaviy sharqona fazilatlar, islomiy qadriyatlarga batafsil to‘xtalib: “Farzand – Haqning omonati. Ota-onas oldida mahshar vaqtida bu omonat haqqi talab qilinadi. Bu omonat go‘yoki oyna – butun borliq ko‘zgusi, avvalidir. Haqiqat javohiri uni nimaga xohlasa, o‘shanga moyil qilishi mumkin. Demak, zarurat bo‘yicha farzandni to‘g‘ri tarbiya qilish, toki yoqimli sifatlarga ega bo‘lsin. Avvalo, unga chiroyli ism berish kerak. Agar farzand nomi munosib bo‘lmasa, ma’lum muddat yashagandan so‘ng unda o‘z ismiga nafrat paydo bo‘ladi. Yana mo‘tadil tabiatlik va xushmuomala va pokiza ko‘rinishli bo‘lsin,” deb o‘z qarashlarini bayon etgan.

Mahmud Zamahshariy: “Insonning asl otasi – bu uning adabi. Balki adab bebos farzand uchun otadan ham yaxshi tarbiyachidir”, deb ta’kidlaydi.

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining taniqli namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” kitobida ta’kidlaganidek:

“Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”. Farzandlarni e’tiqodli, bilimli, o’z yurti tarixi va milliy qadriyatları hamda buyuk ajdodlar qoldirgan ilmiy va ma’naviy merosni asrashga o’rgatish oiladan, ota-onan o’gitlaridan boshlanadi. Bu borada allomalarimiz merosi bugun ham ma’naviyatimizni boyitishga, barkamol avlodni tarbiyalashdek oliy maqsadga erishishga xizmat qiladi.

Shu o’rinda shuni qayd etib o’tish lozimki, o’tgan barcha payg’ambarlar, shu jumladan bizning janob Payg’ambarimiz Muhammad Mustafo sollollohu alayhi vasallam ham o’z ummatlariga faqat diniy ta’lim berish uchun yuborilmaganlar, balki dunyoviy ishlarga, turmush tarzi, tirikchilik, tijoratdan tortib dehqonchilikkacha, uy-ro’zg’or ishidan tortib, sport ishlari gacha tegishli ko’rsatmalarni berib ketganlar. Inson o’zini yoshlik chog’laridan boshlab odob-axloqli qilib tarbiyalashi bilan birga ilmu fanning barcha qirralarini egallahsga qiziqishi darkor ekan. Maktabda berilayotgan darslarni puxta o’zlashtirishga alohida e’tiborni jalg qilishga, boshqa ishlarga, behuda o’yinlarga vaqtini bekor sarflamaslikka o’rganib borish har bir ota-onan va ustozlarning mas’uliyatlari burchlaridan ekanini chuqur anglab, unga amal qilishimiz lozimligi ma’lum bo’ladi.

Yoshlarning barkamol avlod bo’lib yetishishlari yo’llida hukumatimiz tomonidan juda ko’p xayrli ishlar qilinmoqda. Ularning foydali bilim va kasbhunarlarini puxta egallahslari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Bu kabi imkoniyatlarni qadrlash va ulardan unumli foydalanishlarida yoshlarga har tomonlama ko’maklashish biz kattalarning vazifalarimizga kiradi. Ayniqsa, bugungi tahlikali zamonda o’zlarini turli mafkuraviy xurujlardan asrashlari muhimdir. Negaki, yoshlar jamiyatning ko’zga ko’ringan qatlqidir. Har qanday buzg’unchi g’oyalar shamoli avvalo shu qatlamni siypalab o’tishga urinadi. Bunday qaltis vaziyatlarda ota - onalar bilan birgalikda farzandlar ham o’z oldilariga ustuvor vazifa sifatida turli yot g’oyalar va mafkuraviy tajovuzlardan o’zlarini asrashlari lozim.

## **Topshiriq. Sharq mutafakkirlari va islom dinida odob axloq haqidagi fikrlar tahlil. Matn tahlili.**

Farobi bilimidan ma'rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: "Har kimki ilm xikmatni o'rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog' – salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni hnurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin".

Navoiy ayolning turmushdagi hissasiga quyidagicha to'xtaladi: "Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa – ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa – jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi".

Qur'onning Baqara su'rasi, 34-oyatida shunday deyilgan: "Eslang (Ey Muhammad), Biz farishtalarga Odamga ta'zim qiling, deyishimiz bilan Sajdaga egildilar. Faqat Iblis kibr va or qilib-kofirlardan bo'ldi." (Allah) dedi: "Senga buyurgan paytimda nima seni sajda qilishdan to'sdi? "Men undan (Odaman) yaxshiroqman. Meni olovdan yaratgansan. Uni esa loydan yaratding" – dedi u.

(Allah) dedi: "U holda undan (jannatdan) tushgin. Sen uchun kibru xavo qilib yurish joiz emas. Bas, chiq. Albatta sen xor bo'lguvchilardandirsan. "A'rof", 11,12,13-oyatlar.

### **Nazorat savollari.**

#### **1. Milliy tarbiya nima bu...?**

**A.** Asrlar davomida odamlarning o'zlari tomonidan yaratilgan, yoshlarning dunyoqarashi va qadriyat yo'nalishlarini shakllantirish, unga ijtimoiy tajribani, yutuqlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan qarashlar, e'tiqodlar, g'oyalar, ideallar, urf-odatlar va boshqalar tizimi.

**B.**Ijtimoiy tajribani, yutuqlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan qarashlar tizimi

**C.**Odamlarning o'zlari tomonidan yaratilgan, e'tiqodlar, g'oyalar, an'ana, urf-odatlar va boshqalar tizimi

**D.**Ijtimoiy-ma'frifiy tajribani avlodan avlodga o'tkash va saqlash tizimi.

## **2. Diniy e'tiqod bu...?**

**A.** Inson irodasidan yuqori turgan zotga imyon keltirish, undan madad olish, asotiriyligi voqeasi – hodisalarning takrori sodir bo'lishi va unga daxldorlik hamda muayyan tasavvur, aqida muqaddas kitob, payg'ambar, avliyo va xokazolarga ishchidir demakdir.

**B.** Tabiatga ishonish va undan madad olish, asotiriyligi voqeasi – hodisalarning takrori sodir bo'lishi va unga daxldorlik hamda muayyan tasavvur, aqida muqaddas kitob, payg'ambar, avliyo va xokazolarga ishonch demakdir.

**C.** Muayyan tasavvur, aqida muqaddas kitob, pay'gambar, avliyo va xokazolarga ishonch demakdir.

**D.** Tabiat va jamiyat, dun'yo dinlari qonunlariga ishonish demakdir.

## **10-MAVZU. MAKTAB YOSHIDAGI QIZLARDA MEHNATSEVARLIKNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI**

**Reja:**

1. Mehnatga adekvat munosabat.
2. Mehnat va uning turlari.
3. Mehnat qilishni odatga aylantirish usullari.

**O'quv mehnati** o'quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyati turidir.

**Ijtimoiy-foydali mehnat** shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat harakteridagi faoliyati turidir.



**O'z-o'ziga xizmat** maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy va o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o'zlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mehnat faoliyati o'quv mehnati ijtimoiy-foydali mehnat o'z-o'ziga xizmat qilish unumli mehnat faoliyatining asosiy turlarini oshiruvchi mehnat faoliyati turidir.

Maktabda o'quvchilarning navbatchiligi o'z-o'ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir. Unumli mehnat turlari xilma-xildir. Masalan, o'quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga yem-xashak tayyorlash va shirkat xo'jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat – bolalar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi.

Hayotimizni tez sur'atlar bilan bezab borayotgan texnika, texnologiya, turli ixtiolar, elektron va mexanik qurilmalar-u, uy-ro'zg'or buyumlari jimoniy mehnatga nisbatan talabni bir qadar susaytirmoqda.

"Vijdonan bajarilgan har qanday mehnat foydalidir, binobarin, u hurmatga loyiq" - deya bejiz ta'kidlamagan edi. Mashhur g'arb yozuvchisi Stendal. Qalban his etgan holda har vazifa va masalaga jiddiy yondasha bilish e'tiborga molikdir.

Bolalarni mehnatga jalb qilishning quyidagi usullarini ko'rsatish mumkin: hohish, iltimos, buyruq, qiziqtirish, o'zaro kelishuv.

Muhammad G'azzoliyning fikricha, inson ma'naviy, ruhiy olamini kamol toptirish uchun dil - podshoh, aql - vazir, ruh mamlakatini boshqarib turish

kerak. Sharq mutafakkirlari inson ruhiy olamida aqlni podshoh deb biladilar. Insonni aql-idrok sohibi bo'lgani uchun e'zozlash zarur, deb hisoblaydilar. Mohiyatan insoniylik ikki narsaga - aql-idrok va qalbning go'zal intilishlariga tayanadi. Bunday talqin qilingan insoniylik nazarimda axloqiy tushunchadir: insonni, uning manfaatlarini himoya qilish, uning fazilatlarini va ruhiy erkinligini qadrash asosiy o'rinn tutadi. Joiz bo'lsa mehnat iborasini shunday tariflash mumkin, "Mehnat misoli ko'ngil musavviri mo'yqalami. U qalb go'zalligini yaratishda asosiy vositadir".

O'z shaxsiyatiga, qobiliyatiga ortiqcha baho berish, o'zini boshqalardan yuqori qo'yish, kalondimog'lik oqibatida namoyon bo'ladigan salbiy axloqiy sifat nima? – degan savolga hech ikkilanmay kibr deya javob beramiz.

Aslida esa, "Oyog'ida tik turgan dehqon tiz cho'kkdan oliftadan ming bora afzal" – deya izohlagan edi B. Franklin.

"Mehnatsevarlik kundalik hayotiy yumushlarda - degan edi G.Bicher - har qanday buyuk aql egasi qila oladigan va shu bilan birga u qila olmaydigan ko'pgina ishlarga ham qodirdir". M. Gorkiy ta'biri bilan "Ishchining jismoniy g'ayrati mo'jizalar yaratishga qodir"- deyishi o'rinnlidir. Bu borada yuzlab misollar keltirish mumkin: Buyuk Xitoy devorining balandligi 12 metr, kengligi 5 metr, uzunligi esa qariyb 4000 kilometrni tashkil etadi. U qadim zamonlarda dushman qo'shinlari uchun jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilgan: otliq qo'shinlar undan oshib o'ta olmas, qal'alarni hujum bilan zabit etishni esa ko'chmanchilar hali uddalay olishmasdi. Buyuk devorni belkuraklar, cho'kichlar va zambilg'altaklar yordamida barpo etadilar. Ishonish qiyin bo'lsa-da, e'tibor qarataylik, yuz minglab dehqonlar buyuk devorni belkuraklar, cho'kichlar va zambilg'altaklar yordamida barpo etadilar.

Inson bolasi tayyor mehnatsevarlik tuyg'usi bilan dunyoga kelmaydi. U asta-sekin tarbiya jarayonida tarkib topib boradi. To'g'ri ijtimoiy muhitni yaratish ta'lif muassasida ayniqsa, oila muhitida nihoyatda muhimdir. Ularda qobiliyat va amaliy ko'nikmalarni, shuningdek, mustaqil bo'lish, javobgarlikni

his qilish tuyg'ularni shakllantirish lozim. Ushbu sifatlarni shakllantirishda yordamga keladigan dastlabki omil bu shaxsiy irodada namoyon bo'ladi.

Tashqi va ichki to'siqlarni yengib o'tishda tashabbus, qat'iyat, sabotlilik, dadillik va ishchanlik sifatlari muhim o'rinni tutadi. Mehnat tarbiyasi oilada juda erta boshlanadi. Chunki ro'zg'orda bolaning mehnati doimo kerak bo'ladi. Kattalar bolalar qilgan xatolarni doimiy tuzatib, mehnat jarayoni to'g'ri bajarilishini nazorat qilib boradilar. Oilaning qut-barakasi hamjihatligi, hamkorligi a'zolarning kasb-hunar malakalarini egallaganliklari bilan yanada oshadi. Hazrat Alisher Navoiy so'zi bilan aytganda, "nosihisodiq (to'g'ri so'zli nasihatchi)" ustoz bo'lish lozim. Mana masalan, o'zimizga bir nechta savollarni beraylik?

- Nega telefon kompaniyasidagi operator har qanday holatda ham o'z mijozlariga iliq va samimiy javob beradi?
- Nima uchun taksi haydovchisi yuklarni mashina yukxonasidan manzilga yetib borganida yerga uloqtirmaydi?
- Nima uchun sotuvchi haridorning har qanday injiqliklariga chidaydi?

Har qaysi holat uchun yagona kasb madaniyati degan izoh menimcha, to'g'ri bo'lardi. Demak, mehnat madaniyatiga rioxal qilish uning samaradorligini ta'minlovchi muhim omildir.

"Shon-sharaf mehnatning qo'lida", – deya haqqoniy so'zlarni aytgan edi buyuk rassom Leonardo da Vinchi. Ijodkorlik, tashabbuskorlik, mas'uliyat hissi, ishbilarmonlik, hisob-kitobga mohirlik, izlanuvchanlik, sabr-matonatli bo'lish kabi ijobjiy insoniy fazilatlarga ega bo'lish ham katta baxt, ham katta yutuqdir. Buni yoshlarga biz pedagog-murabbiylar to'g'ri, aniq va o'z vaqtida yetkazish, to'laqonli tushuntirishmiz lozim.

Mehnat insonning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, hayot kechirishning asosiy shartidir. Mehnat tufayli inson o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini amalga oshiradi. Insonning o'zi esa mehnatkash bo'lib u tufayli o'zining iste'dodi, qobiliyati, layoqatini namoyon etadi. Mehnat jarayonida insonning dunyoqarashi kengayib, bilim saviyasi oshib, o'z-o'zini

jimoniy va ma'naviy jihatdan shakllantirib boradi. Yoshlikda puxta egallangan hunar, mehnat malakalari inson umrining oxirigacha rohat-farog'atda turmush kechirishining garovidir.

## OQUV FAOLIYATI JARAYONIDA MEHNAT

